

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO'LIMI**

Qo'lyozma haqida

UDK: 338.43

**SHARIPOV SARDOR BEGMAHMAT O'G'LI
LIZING-AGROR SOHADA IJTIMOY-IQTISODIY
MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH USLUBI
SIFATIDA**

**Mutaxassislik: 5A230101-“Iqtisodiy nazariya” Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar: dots.B.M.Boboqulov

SAMARQAND-2016

Mundarija:

Kirish.....	3-6
I-BOB. Lizingning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishdagi o`rni va metodologik asoslari.....	7-41
1.1.Lizing munosabatlari, uning mohiyati va rivojlanish bosqichlari.....	7-21
1.2.Lizing munosabatlarini amal qilish jihatlari va xususiyatlari.....	21-31
1.3.Lizing turlari va uning tavsifi.....	31-41
I-bob bo'yicha xulosa.....	40-41
II-BOB. "O'zqishloqxo'jalikmashlizing" aksiyadorli lizing kompaniyasining moliyaviy-iqtisodiy holati va uning tahlili	42-70
2.1.O'zbekistonda lizing kompaniyalarning boshqaruv tizimining zamonaviy holati.....	42-56
2.2."O'zqishloqxo'jalikmashlizing" ALK kompaniyasining moliyaviy tahlili	56-64
2.3."O'zqishloqxo'jalikmashlizing" ALK kompaniyasining qishloq xo'jaligi asosiy vositalarini modernizatsiyalashdagi o`rni.....	64-68
II-bob bo'yicha xulosa.....	68-71
III-BOB. Qishloq xo'jaligini lizing asosida texnika bilan ta'minlashning samaradorligini oshirish yo'llari.....	72-90
3.1.Lizing jarayonlarini rivojlantirish tahlili va lizingdan foydalanishning hozirgi holati.....	72-77
3.2.Lizing asosida texnikadan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....	77-85
3.3.Fermer xo'jaliklarini qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlashda lizing va kredit resurslaridan foydalanishning afzalliklar.....	85-90
III-bob bo'yicha xulosa.....	90-91
Xulosa va takliflar.....	92-95
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	96-101

Kirish

Tadqiqot ishining dolzarbligi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat iqtisodiyotida chuqur o'zgarishlarga erishish, lizing munosabatlari va uning qishloq xo'jalik investitsion faoliyatiga ta'sirini o'rganish, iqtisodiyot sohalarida tadbirkorlikni rivojlantirish va ularni yangi mexanizmlar orqali cheklangan moliyaviy resurslardan iloji boricha ko'proq samara olib foydalanishga harakat qilinadi. Shuningdek, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish har qanday mamlakatda investitsion jarayonlarni kengaytirishdan boshlanadi.

Lizing munosabatlari qishloq xo'jalik investitsiyalarni moliyalashda o'ziga xos o'rni mavjud ekan, uning faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish uchun alohida yo'nalishlarni ishlab chiqish zarur. O'zbekistonda lizingga bo'lgan talabning o'sib borishi mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir etadi. Shu bilan birgalikda, hozirgi kunda korxonalar va qishloq xo'jaliklarda yangi texnika va texnologiyalarga talab oshib borishi hamda bu talabning moliyaviy ta'minoti lizing orqali amalga oshirilishida xorijiy kompaniyalar ham o'z tovar va xizmatlarini taklif qilmoqdalar.

Bu to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni ta'kidlab o'tganlar: - «Bugungi kunda lizing xizmatiga alohida ehtiyoj sezilmoqda. Xususan, kichik korxonalar, xususiy tadbirkorlar, fermer xo'jaliklari aynan lizing orqali zamonaviy ixcham texnologiyalarga ega bo'lishi mumkin. Bugun biz uchun g'oyat zarur bo'lgan investitsiya oqimi kuchayishiga, qishloq xo'jalik texnikasini, transport va samolyotlar parkini yangilashda lizing amaliy vosita bo'lib xizmat qilishi zarur¹».

Xo'jalik yurituvchi subektlarda mavjud asosiy fondlarni doimiy ravishda yangilash, jahon andozalariga mos ravishda yangi texnika-texnologiyalarni joriy etish hamda jahon bozorlariga eksport qilish, erkin raqobatga chidamli tovar va xizmatlar ishlab chiqarish maqsadga muvofiqdir.

Buning uchun yangi texnika va texnologiyalar uchun moliyaviy

¹ Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz» Tosh: «O'zb» 2015

manbalarni izlab topishda lizing infratuzilmasini rivojlantirish talab etiladi va bu orqali mamlakatimizga chet el investitsiyalarni kirib kelishiga zamin yaratadi. Iqtisodiyotni texnik-iqtisodiy modernizatsiyalash, sanoat va qishloq xo'jalikning ustivor tarmoqlarini yanada rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini o'stirish, tashqi va ichki bozorlardagi talablarga javob beradigan raqobatbardosh tovarlarni ko'paytirish, yangilarini yaratish va amalga oshirilishini taqozo etadi. Bu holat dissertatsiya tadqiqoti mavzusining dolzarbligini belgilaydi va uni tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi

Dissertatsiya ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.

Mavzu ustida ishlash jarayonida o'zbek va chet el mutaxassislarining lizing amaliyoti bo'yicha ishlari o'rganildi. Ushbu ishlar yordamida mamlakatimizda lizing rivojlanishi holatini maqsadli o'rganishni imkon bo'ladi. Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashda O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlaridan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlaridan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlaridan hamda lizing masalalariga doir amaldagi nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlardan foydalanildi.

Tadqiqot ishining maqsadi. Qishloq xo'jaligi sohasida texnikalarni lizingga berish jarayonlarini tadqiq etish, uning yutuq va kamchiliklarini aniqlash va mazkur jarayonlarni boshqarish samaradorligini oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish tadqiqot ishining asosiy maqsadi bo'lib hisoblanadi. Maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** bajarilishi belgilangan:

- lizing, uning mazmuni, zaruriyati va tashkiliy asoslarini o'rganish;
- lizing operatsiyalarining turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish;
- O'zbekiston Respublikasida lizing munosabatlarining huquqiy asoslarini yoritish;
- qishloq xo'jaligida asosiy vositalarni modernizatsiyalashda lizingdan foydalanish amaliyotini tahlil etish;

- O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi sohasida lizing operatsiyalari va investitsion faoliyati hozirgi holatini tahlil etish;
- O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan qishloq xo'jaligi texnikalarini sotib olish uchun ajratilayotgan lizing kreditlarini tahlil etish;
- «O'zqishloqxo`jalikmashlizing» ALK tomonidan qishloq xo'jaligi sohasida texnikalarni lizingga berish amaliyotining tahlilini amalga oshirish;
- qishloq xo'jaligi sohasida texnikalarni lizingga berish jarayonidagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal qilish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

Tadqiqot ishining obyekti. «O'zqishloqxo`jalikmashlizing» ALK tomonidan texnikalarni lizingga berish jarayonlari izlanish obyekti bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti. Qishloq xo'jaligi sohasida texnikalarni lizingga berish jarayonlarining tashkiliy-huquqiy asoslari va iqtisodiy-moliyaviy munosabalar tadqiqot ishining predmeti sifatida maydonga chiqadi.

Tadqiqot obyekti va predmetini tadqiq etishda «O'zqishloqxo`jalikmashlizing» ALK hamda Tijorat banklari misolida mavzu tahlili amalga oshirildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Qishloq xo'jaligi sohasida texnikalarni lizingga berish jarayonlari kompleks tadqiq etilganligi va mazkur jarayonlarni boshqarish samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar tizimi ishlab chiqilganligi tadqiqot ishining asosiy ilmiy yangiligi bo'lib hisoblanadi. Ishning ilmiy yangiligi yanada aniqroq tarzda quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- lizing munosabatlarini ijtimoiy ishlab chiqarishdagi o`rni va roli tahlil qilindi va ahamiyati ko`rsatildi;
- O'zbekiston Respublikasida lizing munosabatlarining huquqiy asoslari o`rganildi, amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimli tarzda, o'zaro bog'liqlikda yoritildi;
- lizing operatsiyalarining turlari o`rganildi va ularning o'ziga xos

jihatlar va xususiyatlari aniqlandi;

- Qishloq xo'jaligida texnikalarni lizingga berish amaliyoti tahlil etilib lizing operatsiyalari jarayonida mavjud muammolar aniqlandi va ularni hal qilish yuzasidan takliflar tizimi ishlab chiqildi;

- O'zbekistonda lizing munosabatlarini rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida xorij tajribasi o'rganildi.

- O'zbekistonda lizing xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari o'rganildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Tadqiqotda shakllantirilgan ilmiy va amaliy xususiyatdagi mulohazalar, taklif hamda tavsiyalar tijorat banklari va lizing kompaniyalar tomonidan lizinga tegishli yo'riqnoma, maxsus ko'rsatmalar ishlab chiqish va amaliyotda foydalanish uchun uslubiy, ilmiy manba sifatida qo'llanishi mumkin.

Tuzilmaviy rejasiga ko'ra dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qismlaridan iborat.

I-BOB. LIZING IJTIMOIIY-IQTISODIY MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHDAGI O`RNI VA METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Lizing munosabatlari, uning mohiyati va rivojlanish bosqichlari

Iqtisodiy adabiyotlarda bir qator mamlakatimiz va xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan lizing tushunchasiga yetarlicha ta'rif berilgan. Rivojlangan davlatlarda lizing amaliyoti oqilona tashkil qilinib u uzoq yillik tajribaga ega. Hozirgi kunga qadar lizing tushunchasining mazmuniga berilgan turlicha ta'riflar mavjuddir. Umuman olganda eng birinchi, lizing mohiyatini aks ettiruvchi iqtisodiy qarashlar hattoki, Aristotelning "Ritorika" asarida ham keltirilgan bo'lib, unda ijara yordamida olinadigan iqtisodiy samaradorlik to'g'risida fikrlar keltirilgan.

Qadimgi Rimda harbiy texnikani ijaraga olish huquqidan keladigan daromadlar to'g'risida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Tarixchilarning ma'lumotiga ko'ra, lizing kelishuvlari haqida birinchi bor 1066- yillardagi tarixiy asarlarda ma'lumotlar keltirilgan. Unga ko'ra, Vilgelm Britaniya orollarini egallash uchun Normandiyaliklardan kemalarni lizinga olganlar.

Avvalo, "lizing" so'zining ma'nosiga e'tibor qaratishni lozim topdik. "Lizing" atamasi inglizcha "to lease" so'zidan olingan bo'lib, "ijaraga olish" degan ma'noni bildiradi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida lizinga quyidagicha ta'rif berilgan:

«Lizing shartnomasi bo'yicha lizing beruvchi (ijaraga beruvchi) bir taraf lizing oluvchi (ijaraga oluvchi) ikkinchi tarafning topshirig'iga binoan sotuvchi uchinchi taraf bilan undan lizing oluvchi uchun mol-mulk sotib olish haqida kelishish majburiyatini oladi, lizing oluvchi esa, buning uchun lizing beruvchiga lizing to'lovlarini to'lash majburiyatini oladi»².

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida 70-yillarning o'rtalarida va

² Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси.-Тошкент.: Адолат, 2003. - Б. 477.

80-yillarning boshlariga kelib iqtisodiyotning turli tarmoqlarida lizing operatsiyalarining jadal rivojlanishi hisobiga uning tuzilmasida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Bu mamlakatlarda lizing qisqa vaqt ichida iqtisodiy faoliyatning muhim vositalaridan biriga aylandi. O'z xizmatlarini taklif etayotgan yangidan yangi kompaniyalar paydo bo'la boshladi, lizing shartnomalari shartlaridagi o'zgarishlar tufayli esa investitsiya vositalarini sotib olishning g'oyatda turli-tuman variantlari vujudga keldi. Lizingning yuksak iqtisodiy samaradorligi va investitsiya vositasi sifatida g'oyatda sharoitlarga moslashuvchanligi iqtisodiyotda keng ommalashishiga imkon berdi.

Lizingning bu darajada keng yoyilishi va uning bozor iqtisodiyoti tuzilmasidagi o'rnini izohlash uchun (buning o'z obyektiv sabablari bor) quyidagi asosiy shart-sharoitlarni ta'kidlab o'tish lozim:

lizing - moliyalashtirishning g'oyatda qadimiy shakli bo'lib, o'z taraqqiyoti davomida bir necha bosqichlarni bosib o'tgan va shu yo'l bilan o'zining ahamiyatini, xo'jalik yuritishning turli bozor tizimlariga moslasha olishini isbotlagan.

Bizning fikrimizcha, lizing biznesining asosiy bosqichlari va ularning iqtisodiy shart-sharoitlarini quyidagicha tasvirlash mumkin (1.1.1-jadval)

Lizing xizmatlarining evolyutsiya bosqichlari

Evolyutsiya bosqichlari	Xarakterli xususiyatlari
I bosqich 1877-1952 yillar	• 1877 -yil. Lizing tizimining paydo bo'lishi («Bell» telefon kompaniyasi). • 1952-yil. Dastlabki mustaqil «Yunayted Steys Lizing Korporeyshn» lizing kompaniyasining tashkil qilinishi. • Ushbu bosqich ko'p jihatdan lizingning rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishi uchun tashkiliy asos bo'ldi.
II bosqich 1952-1974 yillar	• Lizing infratuzilmasining shakllanishi. • Soliq imtiyozlarining kuchga kirishi va tezkor amortizatsiya usulining qo'llanishi. • Fan-texnika taraqqiyoti ta'sirida ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirish yuz berdi. • Assortimentning kengayishi va mahsulotlarning tabaqalashuvi • Kichik va o'rta firmalarning rivojlanishi
III bosqich 1974- yildan hozirgi davrga qadar	• AQSh va Farbiy Yevropa mamlakatlarida inqirozlar to'liqini. • Yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi. • Mahsulotni sotish muammolarining keskinlashganligi tufayli lizingning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi. • Lizing yordamida moliyalashtirish samaradorligining e'tirof qilinishi.

I bosqich 1877-1950 yillarni o'z ichiga oladi. Aynan shu davrda, avstriyalik tadqiqotchi V.Xoyerning fikricha, «lizing» atamasi hozirgi ma'noda muomalaga kirdi. 1877-yilda AQShda tovarlarni faqat ijaraga berishga

asoslangan shartnomalar tizimi - «lizing» vujudga keldi, «Bell» telefon kompaniyasi telefon apparatlarini sotish emas, balki ularni ijaraga berishga qaror qildi. V.D.Gazman ta'kidlab ko'rsatganidek, bu qadar oddiy operatsiya faqat aloqaning rivojlanishiga kuchli ta'sir etdi, deyish noto'g'ri bo'lar edi. O'ziga xos moliyaviy xizmatlar ko'rsatishdan keladigan foyda yangi texnika ishlab chiqaruvchilarida katta qiziqish uyg'otdi, ular asbob-uskunalarini ijaraga berishga yuqori baho berdilar, chunki bu, ularni oddiy sotishdan farqli ravishda, «nou-xau» dan foydalanishga bo'lgan monopol huquqini himoyalashga imkon berar edi.

Birinchi mustaqil lizing kompaniyasi bo'lgan «Yunayted Steyts Lizing Korporeyshn» 1952-yilda San-Fransisko shahrida ro'yxatdan o'tkazildi. Tezda ushbu voqeaning davomchilari juda ko'payib ketdi va ijara munosabatlarida haqiqiy inqilob to'ldiniga sabab bo'ldi. Bu yerda shuni ham qayd etish zarurki, mazkur bosqich keyingi davrlarda ko'p jihatdan savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida faoliyat ko'rsatuvchi lizing korxonalarining rivojlanishi va faoliyati uchun tashkiliy asos bo'ldi.

II bosqich 1950-1974-yillarni o'z ichiga oladi. Bu davr lizing infratuzilmasining shakllanishi bilan bog'liq. Lizing tadbirkorligi d

inamikasining asosiy yo'nalishi uning kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish vositasi sifatida qo'llanilishida namoyon bo'ldi. Jahon bozor iqtisodiyotida bu jarayon quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Jumladan,

AQSh va Farbiy Yevropa mamlakatlarida urushdan keyingi iqtisodiy vaziyat bilan bog'liq bo'lgan:

- likvid mablag'lar hajmining yetarli emasligi;
- raqobatning keskinlashuvi;
- korxonalar foydasining kamayishi;
- iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadlarida davlatning investitsiya siyosatni tartibga solishga katta e'tibor qaratishi.

Xorijiy mamlakatlarning tajribasidan ma'lumki, investitsiya siyosatiga ta'sir ko'rsatishning asosiy iqtisodiy vositasi soliq va amortizatsiya imtiyozlari

bo'ldi. Soliq imtiyozlarining ta'siri, obyektning xizmat muddati bazasi e'tiborga olinmay, hisoblanadigan tezkor amortizatsiya usulining qo'llanilishi lizingda iqtisodiy jihatdan foydali bo'lib chiqdi. Buning diqqatga sazovor joyi shuki, ushbu foyda lizing bitimining barcha ishtirokchilari uchun baravar foydali edi.

Lizing beruvchi soliq imtiyozlariga ega bo'lar, vaholanki, agar u aynan shu asbob-uskunani sotib olganda, unga bunday imtiyoz berilmas edi. O'z navbatida, bundan lizing oluvchi ham yutar edi, chunki soliq imtiyozlarini hisobga olganda lizing beruvchi stavkalarini kamaytirishi mumkin edi, ushbu stavkalar esa bankning qayta moliyalashtirish stavkasi foizlaridan 1,5-2 baravar kam bo'lishi mumkin edi. Bundan tashqari, lizing beruvchi asbob-uskunalar bo'yicha 10 foizlik imtiyoz olish huquqini ham qo'lga kiritar edi, lizing to'lovlari summasi esa foydalanuvchining soliqqa tortiladigan umumiy daromadidan chegirib tashlanar edi.

Shunday qilib, soliq va amortizatsiya qonunlari lizingni rivojlantirish jarayonini qo'llab-quvvatlashga sabab bo'ldi. Imtiyozlar qanchalik ko'p berilsa, ushbu mamlakatlarda, lizing shu qadar tez rivojlandi.

II bosqichning oxiriga kelib, lizing sohasidagi tadbirkorlik dinamikasining asosiy yo'nalishi yangilanish va yanada rivojlanish sari o'zgardi. Bunda fan-texnika taraqqiyoti katta rol o'ynadi. Fan-texnika taraqqiyoti ta'sirida ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash boshlandi, bu esa ishlab chiqarishga, ayniqsa elektron-hisoblash texnikalarni ishlab chiqarish sohasiga kapital qo'yilmalarning o'sishiga olib keldi va texnika transport vositalari bilan bir qatorda lizingning birinchi obyektlaridan biriga aylandi.

Shubhasiz, bu g'oyatda qimmatbaho bo'lgan asbob-uskunalaridan foydalanish aynan lizing operatsiyalarining keng tarqalishi tufayli mumkin bo'ldi. Lizing oluvchi ushbu texnikadan vaqtincha foydalanish yo'li bilan o'z ishlab chiqarish muammolarini tez hal qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bundan tashqari, lizing tufayli alohida texnikanigina emas, balki jamlangan texnologiyalardan ham foydalanish mumkin bo'ldi. Ayni paytda eng ilg'or

texnologiyalarni qo'lga kiritish, uni o'zlashtirish va yuksak texnik saviyada saqlash uchun ham sharoitlar yaratildi. Assortimentning bir necha marta kengayishi va mahsulotning tabaqalashuvi, kichik va o'rta firmalarning ko'pligi lizing korxonalarining samarali faoliyat ko'rsatishiga imkoniyat yaratdi.

Ichki va tashqi bozorlarda raqobat kuchayib borayotgan sharoitlarda texnikani iste'molchilarga qanday moliyaviy shartlar bilan taklif qilinishiga katta ahamiyat berila boshlandi. Sanoat va savdo kompaniyalarining muntazam o'zgarib turuvchi talabini endilikda faqatgina kredit muassasalarining klassik operatsiyalari hisobiga to'liq qondirish mumkin bo'lmay qoldi. Xo'jalik yuritish manbalaridagi ustivor yo'nalishlar lizing foydasiga o'zgara boshladi. Yuqorida tavsiflab o'tilgan omillar va ularning ta'siri lizingning ahamiyatini kuchaytirib yubordi.

Lizing tadbirkorligining rivojlanishidagi III bosqich 1973-1974-yillardagi iqtisodiy inqiroz davrida boshlanib, bu davrda, 1980-1982-yillardagi ham monopoliyalarning lizing biznesi bilan munosabatlarini qayta ko'rib chiqish jarayoni jadallashdi va lizing rivojlanishi faoliyat sohasining kengayishi bilan bog'liq bo'ldi.

Inqiroz sharoitlarida zarur resurslardan samarali foydalanish, iste'molchilar doirasini kengaytirish va yangi sotuv bozorlarini egallash maqsadlarida lizing moddiy-texnika ta'minotning, nafaqat joriy, balki qo'shimcha foyda olish bilan bog'liq uzoq muddatli vazifalarni ham hal qilishning asosiy manbaiga aylandi. Bu davrda moliyaviy qiyinchilikka duchor bo'lgan kichik firmalar bilan bir qatorda ulkan resurslarga ega bo'lgan yirik kompaniyalar ham lizing xizmatlariga murojaat qildi. Yirik kompaniyalarning lizingga bunday e'tibor berishlariga asosiy sababi ularning ishlab chiqarish hajmini oshirish va yangi sotuv bozorlarida mustahkam o'rnamshib olishga intilishi edi.

Bu bosqichda banklar ham asta-sekin bunday operatsiyalarga qo'shila boshladilar. Ular lizing kompaniyalariga kreditlar ajrata boshladilar. Mavjud ma'lumotlarga qaraganda, 70-yillarda dunyoning ko'pgina yetakchi banklari

lizing bo'yicha maxsus bo'limlar yoki lizing kompaniyalarini tashkil qildilar. Masalan, «Siti benk» o'zining lizing kompaniyasi va bu kompaniyaning shuba filiallari orqali «Interneshnl Xorvestr» korporasiyasining o'ta qudratli traktor texnikasini lizingga berish bilan shug'ullandi.

Yuqorida qayd etilganidek, ushbu bosqichning o'ziga xos jihati ikkita yirik iqtisodiy inqiroz ro'y bergan, ishbilarmonlik faoliyati pasaygan, talab toraygan, foyda me'yori kamaygan sharoitlarda yirik korporatsiyalar aynan lizinga murojaat qildilar. Bu esa, ayni paytda, lizing korxonalarining faoliyat taktikasini belgilab berdi, ya'ni ular uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotni ijaraga berish hajmlarini ko'paytirish imkoniyati paydo bo'ldi.

O'tgan asrning 80-yillarning boshida, g'arb iqtisodchilarining ma'lumotlariga ko'ra, dunyoning 60 dan ortiq mamlakatlarida lizing kompaniyalari tashkil qilingan bo'lib, ular chet ellardagi 150 ta filiallari orqali rivojlanayotgan mamlakatlarda operatsiyalarni amalga oshirish bilan shug'ullangan. Korxonalar sonining bunday ortishi lizing tadbirkorligi rivojlanishidagi eng muhim o'zgarishni yorqin ifodalaydi. Aytib o'tilgan fikrlarni umumlashtirib, lizingning rivojlanishiga va uning iqtisodiyotdagi o'rniga eng katta ta'sir ko'rsatgan quyidagi bir qator asosiy omillarni sanab o'tish mumkin:


- soliq-amortizatsiya imtiyozlari;
- fan-texnika taraqqiyoti;
- lizing yordamida moliyalashtirish samarali ekanligining tan olinishi;
- lizingning sotuv funksiyasi;
- lizing bilan bog'liq xizmatlar to'plamining kengligi.

Biz lizing sohasidagi tadbirkorlik bosqichlarini ko'rib o'tishni boshlaganimizda lizing kompaniyalari sonining ko'payib borish tendensiyasi mavjudligini ko'rsatib o'tgan edik. Barcha mamlakatlarning tajribasidan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, lizing korxonalarining faoliyat jarayoni turlicha bo'lib, ko'pgina omillarga va avvalo raqobatbardoshlikka bog'liqdir. Raqobatbardoshlikning hal qiluvchi omillari narx va sifatdir.

Odatda, bitimning «narxi» asosiy omil hisoblanadi. Lizing beruvchi uchun «narx» daromaddor koeffitsiyenti, shu jumladan ijara muddati, mulkning qoldiq qiymati, soliq rejimi, risk darajasi, bo'nak to'lovlarining mavjudligi, tomonlarning huquq va majburiyatlari bilan bog'liq. Lizing oluvchi uchun esa ko'pincha lizing bilan bog'liq xarajatlar miqdori, shu jumladan lizing bitimining foizi yoki xalqaro bozordagi valyuta kurslarining o'zgarishi narx ko'rsatkichi hisoblanadi.

Quyidagi 1.1.2-chizmada lizingning rivojlanish bosqichlarini ko'rishimiz mumkin.

1.1.2-rasm



Demak, 1.1.2-chizmaga ko'ra, jahon xo'jaligida dastlabki ijara munosabatlari tosh asrida vujudga kelgan bo'lib, unda mulk qisqa muddatga mulkdorga qaytarish sharti bilan ijaraga berilgan.

Lizing oluvchining aktivlarini ma'lum vaqt davomida foydalanishi va lizing obyektini qaytarib berishga qiziqmasligi, lizing obyektini qiymatining to'liq to'lanishi va to'lov grafigining tuzilishi natijasida moliyaviy lizing munosabatlari shakllandi.

Moliyaviy lizing esa faol raqobat muhiti shakllangan, shartnoma shartlariga alohida yondashuv, mijoz biznesining yo`nalishini hisobga olib bitimlar tuzilishi, yirik lizing kompaniyalari va mutaxassislashgan lizing beruvchilarning paydo bo'lishi, innovatsion faoliyat sifatida lizingning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi bilan vujudga keldi.

Texnologiyalarning tez rivoji, lizing obyektining ikkilamchi bozorining paydo bo'lishi, lizing oluvchilarning talablari va ular moliyaviy ahvolidan o'sishi natijasida operatsion lizing paydo bo'ldi. Lizingga innovatsiyalar kiritish natijasida yangi maxsulotlar yuzaga kelmoqda. Bularga, sintetik lizing, ventur lizing dasturlari va lizingning boshqa turlarini kiritishimiz mumkin.

1988-yilda Kanada poytaxti Ottava shahrida qabul qilingan Xalqaro moliyaviy lizing to'g'risidagi konvensiyada (UNIDRUA) lizingga shunday ta'rif berilgan: «Lizing bu shunday bitimki, unda bir tomon (lizing beruvchi), boshqa tomonning (lizingga oluvchi) topshirig'iga ko'ra uchinchi tomon bilan (ishlab chiqaruvchi) tovarni yetkazib berish to'g'risidagi bitimga kelishadi, ushbu bitim shartlari bo'yicha lizingga beruvchi mashinalar, ishlab chiqarish vositalari yoki boshqa uskunalarni lizingga oluvchi shartlari asosida sotib oladi va lizingga oluvchi bilan unga uskunalaridan foydalanish huquqini lizing to'lovlarini to'lashga almashtirish asosida berishga asoslangan bitimga kirishadi»³.

Iqtisodchi olimlar I.Bernar va J.Kolli lizingni kreditning bir turi sifatida e'tirof etishib, ular lizingni ko'char va ko'chmas mulklarni ijarachiga sotish imkoniyatini beradigan va uni ijaraga olish shartnomasini ko'zda tutadigan professional kreditning bir turi sifatida talqin qilishgan⁴.

Rossiyalik taniqli bankir A.V.Murichev o'zining ilmiy maqolalarida lizing operatsiyalarini banklar tomonidan kreditlashni rivojlantirish masalasini tadqiq qilgan hamda qator ilmiy xulosalar va tavsiyalarni ishlab chiqqan.

A.Murichevning fikriga ko'ra, lizing kompaniyalari faoliyatini moliyalashtirishning dolzarb muammolaridan biri lizing kompaniyalari

³ Eckstein W. Zur Unidroit-Konvention ueber das internationale Finanzierung-leasing - FLF, 1992, Heft 2. - P. 56.

⁴ Бернар И., Колли Ж.-К. Толковый экономический и финансовый словарь. Французская, русская, английская, немецкая, испанская терминология: в 2-х тт. - Т.1: Пер. с фр. - М.: Международные отношения, 1994. - С. 507.

tomonidan bank kreditlariga bo'lgan ehtiyojni tijorat banklari tomonidan qondirilmayotganligi hisoblanadi. A.Murichev o'z fikrini davom ettirar ekan, banklarning lizing kompaniyalarini kredit resurslariga bo'lgan ehtiyojini qondira olmayotganligining ikki sababini ajratib ko'rsatadi:

- Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga bitta mijozni kreditlash bo'yicha cheklovning mavjudligi;
- banklarda lizing kompaniyalari moliyaviy holatini baholashning maxsus metodikasini mavjud emasligi⁵.

A.Murichevning banklarda lizing kompaniyalarining to'lovga qobilligini baholashning maxsus metodikasini mavjud emasligi to'g'risidagi fikri o'rirlidir. Bu esa, lizing kreditlari riski darajasini pasaytirishda muhim o'rin tutadi.

2008-yilda jahon xo'jaligida yuz bergan va hozirgacha davom etayotgan jahon moliyaviy iqtisodiy - inqirozining lizing operatsiyalari rivojiga salbiy ta'siri masalasi bir qator taniqli iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topdi.

Masalan, V.Kashkin ushbu global moliyaviy inqirozning lizing operatsiyalariga ta'sirini qo'yidagicha baholagan:

- inqiroz ta'sirida jahonning 70 foizga yaqin lizing kompaniyalarining yangi bitimlar imzolashi to'xtatildi;
- lizing obyektlari soni kamaydi;
- lizing bozorida foiz stavkalarining darajasini sezilarli darajada oshishi yuz berdi
- bitimlari muddatining qisqarishi yuz berdi. Agar inqirozga qadar lizing bitimlarining o'rtacha muddati 10 yilni tashkil qilgan bo'lsa, 2009-yilda bu muddat 3 yilni tashkil qildi⁶.

Jahon moliyaviy iqtisodiy-inqirozi Rossiya lizing bozorining rivojlanish sur'atlarini sezilarli darajada pasaytirdi. Taraqqiy etgan mamlakatlarda esa, lizing kompaniyalari juda uzoq yillik rivojlanish tarixiga ega. Ushbu rivojlanish

⁵ Мурычев А.В. О развитии банковского кредитования лизинговых операций. // Деньги и кредит. - Москва, 2008. - №6. - С. 66-67.

⁶ Кашкин В.В. О рынке лизинга в условиях кризиса // Деньги и кредит. - Москва, 2009. - №8. - С. 39.

jarayonida ular mustahkam resurs bazasiga va boy tajribaga ega bo'lishdi. Shu sababli, ularning xalqaro lizing bozorlaridagi mavqei juda yuqoridir.

Rossiyalik iqtisodchi olim V.G.Shibakovning fikriga ko'ra, lizing kompaniyalari faoliyatida risklarning darajalarini aniqlash va ularning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan chegaraviy darajalarini belgilash zarur⁷. Natijada, risk darajasini pasaytirishga erishish mumkin.

Yana bir rossiyalik iqtisodchi olim P.Piskun lizing operatsiyalarini amalga oshirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni taklif qiladi:

1. Lizing obyektlarini import qilishda qo'shilgan qiymat solig'ini lizing to'lovlari summasidan chegirib tashlash lozim.

2. Lizing obyektini eksport qilishda rezidentlar tomonidan mamlakatdan tashqariga olib chiqib ketilayotgan lizing obyektlariga nisbatan nollik qo'shilgan qiymat solig'i stavkasini qo'llash zarur⁸.

P.Piskun qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha ushbu muammoni hal qilish yo'llarini taklif qilgan. Bu juda muhim, chunki qo'shilgan qiymat solig'i boj to'lovlari darajasini belgilovchi asosiy to'lov turi hisoblanadi. Shu sababli, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha ikkiyoqlama soliqqa tortishning saqlanib qolishi lizing obyektlari bahosining yuqori bo'lishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, lizing obyektlarining raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A.Vaxobov o'zining ilmiy izlanishlarida kichik biznes subyektlari faoliyatini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab- quvvatlash va tijorat banklari tomonidan sarmoyaviy kreditlashni takomillashtirish masalalarining tahlilida lizingni mohiyatini tadqiq qilgan.

A.Vaxobovning fikriga ko'ra, «kichik biznes subyektlariga qishloq joylarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan ishlab chiqarish korxonalari va firmalarini tashkil etish maqsadiga banklar tomonidan berilgan investitsion kreditlarning foiz stavkalarini O'zbekiston Respublikasi

⁷ Шибakov В.Г. Оценка и формирование профиля рисков деятельности лизинговой компании. // Управление риском. -Москва, 2008. -№2. - С. 17-27.

⁸ Пискун П.Н. Международный лизинг в России - проблемы и перспективы. // Банковское дело. - Москва, 2008. - №6. - С.51-54.

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan bonifikatsiya qilishni joriy qilish lozim»⁹.

Kichik biznes subyektlariga banklar va lizing kompaniyalari tomonidan berilayotgan lizing kreditlarining foiz stavkalari yuqori darajasida A.Vaxobovning fikrini amaliyotga tatbiq etish muhimdir.

Yana bir mahalliy olim D.G'.G'ozibekov, lizing munosabatlariga quyidagicha ta'rif beradi: «Lizing munosabati o'zida murakkab bir-biri bilan jips bog'liq, o'zaro aloqador va o'zaro uyg'un tadbirkorlikning rivojlanishi, kichik va o'rta biznes korxonalari vujudga kelishiga ko'maklashuvchi iqtisodiy munosabatlar tizimini aks ettiradi»¹⁰.

D.G'.G'ozibekov lizing va kredit munosabatlari o'rtasida uzviy aloqadorlikning mavjudligini e'tirof etadi va har ikkala kategoriyaning taqsimlash funksiyasiga ega ekanligini alohida ta'kidlaydi. «Lizing alohida turdagi mulkiy va huquqiy munosabatlar majmuasini vujudga keltiradigan alohida kredit va ijara munosabatlari vositasida kapitalning pul va buyum shaklida taqsimlanishi sohasidagi iqtisodiy munosabatlar yig'indisidan iborat. Lizing milliy iqtisodiyot va millatlararo iqtisodiyotlar doirasidagi ijara vositasida moliyaviy resurslarni makon va zamonda taqsimlash va qayta taqsimlashdagi mulkiy munosabatlar majmuasidir»¹¹.

D.G'ozibekovning kredit va lizingning mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida taqsimlash funksiyasiga ega ekanligi ilmiy - amaliy ahamiyatga ega bo'lgan xulosadir. Chunki, birinchidan, lizingda ham, kreditda ham obyekt uning egasidan uni vaqtinchalik tasarruf etuvchi foydasiga qaytarib berishlik, muddatlilik, foiz to'lashlilik asosida beriladi; ikkinchidan, lizingda ham, kreditda ham to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirmaslik muammosi mavjud. Bu esa, o'z navbatida, lizing kompaniyasi va lizingga beruvchi bank tomonidan

⁹ Вахабов А.В. Қишлоқ аҳолиси турмуш даражасини оширишда банк тизимининг ўрни. //Қишлоқ тараққиёти ва аҳоли турмуш даражасини оширишда банк - молия тизимининг ўрни.мавзусидаги Халқаро илмий - амалий конференция материаллари. - Тошкент, Молия, 2009. - Б. 22.

¹⁰ Ғозибеков Д.Ғ, Собиров О.Ш., Мўминов А.Ғ., Қулжонов О.М, Лизинг муносабатлари назарияси ва амалиёти. - Тошкент.: «Fan va texnologiya», 2004. - Б. 43.

¹¹ Ғозибеков Д.Ғ, Собиров О.Ш., Мўминов А.Ғ., Қулжонов О.М, Лизинг муносабатлари назарияси ва амалиёти. - Тошкент.: «Fan va texnologiya», 2004. - Б. 47.

ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasini tashkil qilish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan yana biri S.S.Ismaylova o'zining «O'zbekiston agrosanoat majmuasida lizing faoliyatini rivojlantirishning iqtisodiy asoslari» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida, lizing faoliyati tashkiliy - iqtisodiy mexanizmiga xos bo'lgan quyidagi kamchiliklarning mavjudligini qayd etgan:

- lizing oluvchi tomonidan lizing obyektining kamida 40 foizlik qiymatini oldindan to'lab berilmayotganligi;

- lizing beruvchining daromadi (marjasi) foiz darajasi miqdori chegaralanmagan, ya'ni lizing marjasi bozordagi vaziyatdan kelib chiqib belgilanadi, bu esa lizing oluvchi uchun qulay shart emas;

- moliyaviy manbalarning chegaralanganligi natijasida lizing hajmini talab darajasida oshirish imkoniyati yo'q;

- inflyatsiya darajasiga qarab texnika narxi yoki lizing shartnomasi umumiy summasining diskontlanmasligi natijasida lizing beruvchi sarf qilgan mablag'lar qadri (to'lovlik qobiliyati)ning pasayishi¹².

S.Ismaylova lizing oluvchi tomonidan lizing obyektini qiymatining 40 foizini oldindan to'lab berishni taklif qiladi, lekin lizing obyektini qiymatining 25 foizini oldindan to'lab berish tartibi joriy qilingan. Bu ko'rsatkich hamma tomonlar uchun qulay hisoblanadi.

O.Sabirov o'zining nomzodlik dissertatsiyasida lizingga beruvchilarning nafaqat o'z mablag'lari hisobidan, balki jalb qilingan va kredit resurslari hisobidan lizing xizmatlari ko'rsatishi mumkinligini qonun hujjatlarida belgilab qo'yishni taklif qiladi. O.Sabirovning lizing bitimlarini qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilish to'g'risidagi taklifini muhim amaliy ahamiyatga ega¹³.

Fuqarolik kodeksi va «Lizing to'g'risida»gi qonunda lizing tushunchasining mohiyati bir xil talqin etilishi lozim. Bundan tashqari, lizing

¹² Исмаилова С.С. Ўзбекистон агросаноат мажмуасида лизинг фаолиятини ривожлантиришнинг иқтисодий асослари. И.ф.н. илм.дар.олиш учун диссертация. - Тошкент: БМА, 2009. - Б. 102 - 103.

¹³ Сабиров О.Ш. Современное состояние лизинговых отношений в Республике Узбекистан и основные направления их дальнейшего совершенствования. Дисс.на соиск. уч. ст.к.э.н - Ташкент; БФА, 2001. - С. 127.

tushunchasiga ta'rif berilayotganda quyidagi jihatlariga e'tiborni qaratish lozim:

- lizingni uzoq muddatli moliyaviy ijara sifatida alohida qayd etish;
- lizing shartnomalarini 12 oydan ortiq muddatga tuzishning majburiy shart ekanligi;
- lizing munosabatlarini uch subyekt o'rtasida yuzaga kelishi, ammo, lizing munosabatlarini ikki subyekt o'rtasida ham yuzaga kelishi mumkinligi e'tirof etilishi lozim;
- lizingda lizing obyektini haq evaziga vaqtinchalik foydalanish shartining mavjud bo'lishi.

Chunonchi, ingliz lizing uyushmasi (Yenglish Leasing Association - YeLA) moliyaviy lizinga beruvchi majburiy bekor qilinmaydigan davr mobaynida kapitalni amortizatsiya qilgan va foyda olgan holda to'lovlar olish bo'yicha shartnoma deb belgilaydi.¹⁴

Demak, bir tomondan, lizing qaytarish sharti bilan lizingga beruvchi tomonidan asosiy kapitalga qo'yilmalarni, ya'ni lizingga beruvchi, mulkdor bo'lgan holda, asosiy vositalarning elementlarini muayyan davrga taqdim etadi va lizing shartnomasi bilan belgilangan muddatda ularni (yoki amortizatsiya to'lovlari ko'rinishida ularning pul ekvivalentini) qaytarib oladi. O'z xizmati evaziga u haq, ya'ni lizing obyektlaridan foydalanganlik uchun to'lov oladi. Shunday qilib, lizingda muddatlilik, qaytarishlilik va to'lovlilik tamoyillari amalga oshirilishi ta'minlanadi. Bu tashqi ko'rinishda qarz munosabatlariga mos va o'z mohiyati bo'yicha qarz kelishuvining mohiyatini saqlab qoladi.

Boshqa tomondan, lizinga beruvchi kreditor va lizinga oluvchi-qarz oluvchi kapital bilan pul shaklida emas, balki ishlab chiqarish shaklida muomalada bo'lishi munosabati bilan lizing tashqaridan qaraganda shakli bo'yicha ko'chmas mol-mulkka investitsiyalarga o'xshab ketadi. Bunda lizing bo'yicha kapitalning ishlab chiqarish shaklida ifodalanishi hozirgi kunda tushinilishi va amalga qo'llanilishi tub ma'noda eski mohiyatini o'zgartiradi va unga ko'p jihatdan yangi mazmun kasb etadi. Ushbu ma'noda lizing innovatsiya

¹⁴ www.eej-net.org.uk/reg_ADR/Fin_Lease/fin_lease.Html.

hisoblanadi, shuning uchun o'zining iqtisodiy mazmunida kapitalning harakat shakli bo'yicha investitsiya mexanizmining bo'g'ini sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, agar lizingga mol – mulkni muddatlilik, qaytarishlilik va to'lovlilik sharti bilan vaqtinchalik foydalanishga berish sifatida qaralgan taqdirda, uni asosiy fondlarga maqsadli kredit kabi turkumlash mumkin. Bundan tashqari, munosabatlarning moliyaviy tomonidan kelib chiqib, bir tomondan lizing an'anaviy bank kreditiga muqobil, mashinalar va uskunalar sotib olishni moliyalashtiruvchi yangi (innovatsiya) shakllaridan biri kabi qaraladi, chunki mulkdor mol-mulkni to'liq qiymati bo'yicha sotib olar ekan, uni ushbu mol-mulkdan foydalanuvchilarning davriy badallari hisobiga qoplaydi. Shuning uchun lizing iqtisodiy ma'noda lizingga beruvchi tomonidan lizingga oluvchi foydalanish uchun mol-mulk shaklida taqdim etiladigan innovatsiya krediti yoki, keng ma'noda, innovatsiya investitsiyalarining turi hisoblanadi.

1.2. Lizing munosabatlarini amal qilish jihatlari va ususiyatlari.

Jahon xo'jaligida lizing operatsiyalari ko'plab mamlakatlarda iqtisodiyot barqarorligi va rivojlanishining ajralmas qismi bo'lib qolganligini ko'rsatmoqda. Milliy iqtisodiyotlarda lizing hajmi o'sishining sur'ati mashina va uskunalarni ishlab chiqarish uchun xususiy kapital qo'yilmalarning o'sish sur'atidan ahamiyatli darajada oshib bormoqda. Mahsulotlarni ichki bozor bilan bir qatorda tashqi bozorlarda sotishda ham lizingdan keng foydalanilmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarning lizingga oid qonunchiligi ahamiyatli darajada farqlanadi. Chunonchi, lizing kontrakt oxirida uskunalarni opsion bilan sotib olish fransuz modeli Angliyada lizing bitimi emas, balki sotish sifatidagi ijara hisoblanadi. AQShda ham, shuningdek opsion lizingning majburiy sharti hisoblanmaydi. Lizingda sotib olish uchun opsionning o'ri butunlay qarama-qarshi bahoga ega, ya'ni: uni lizingning kerakli va uzluksiz qismi kabi tan olishdan boshlab to lizing operatsiyalarida ijobiy o'rin egallashini rad etgunga qadar.

Lizing olinadigan mol- mulkning buxgalteriya hisobi qoidalarida ham bir

xil yondashish kuzatilmaydi. Buxgalteriya hisobining inglizsakson tizimi lizing obyekti ijaraga oluvchining balansida aks ettirilishini nazarda tutadi, Fransiya va boshqa ayrim mamlakatlarning amaldagi me'yorlari bo'yicha esa - u lizingga beruvchi kompaniyaning balansida hisobga olinadi.

Shu paytga qadar dunyo amaliyotida hatto lizing tushunchasining yagona talqini ham berilmagan. Bu nafaqat lizing operatsiyalarini yoritish uchun qo'llaniladigan turli atamalardan foydalanish (Fransiyada -qarz-ijara, Belgiyada -moliyaviy ijara va h.), balki huquqiy va iqtisodiy xususiyatlar bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, ko'pchilik mamlakatlar (jumladan, AQSh) da lizing bitimlarini tartibga soluvchi maxsus qonun hujjatlari mavjud emas, lizing shartnomalaridan kelib chiqadigan munosabatlar esa fuqarolik huquqi va mol-mulkni vaqtinchalik foydalanishga berishda taraflarning munosabatlarini belgilovchi savdo huquqining umumiy qoidalari, amortizatsiya va soliqqa tortish imtiyozlari va buxgalteriya hisobiga oid soliq qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Ushbu mamlakatlarda lizing va sud amaliyoti yetakchi o'rin egallaydi.

Maxsus huquqiy ta'minot mavjudligi yoki mavjud emasligidan qat'iy nazar, moliyaviy va tezkor lizing mohiyatining iqtisodiy va huquqiy ta'rifi ustuvor o'rin egallaydi.

Xorijiy mamlakatlarda lizing munosabatlarini tartibga solish amaliyotini umumlashtirish huquqiy ta'minot bo'yicha mamlakatlarni uch guruhga ajratish imkoniyatini beradi:

- lizing bitimlarini tartibga soluvchi maxsus qoidalarga ega (Fransiya, Belgiya, Italiya va boshqalar);
- maxsus qonun hujjatlariga ega (Angliya, Avstraliya);
- maxsus qonunlar va qonunosti hujjatlarga ega bo'lmagan (AQSh, Germaniya).

Birinchi guruh mamlakatlarining maxsus qonunlarida lizingda vujudga keladigan uch tomonlama munosabatlarning butun majmuini tartibga solishga intilish ko'pchilik muhim masalalarni batafsil tartibga solish mavjud emasligi bilan mujassamlashgan.

Ushbu hujjatlarga muvofiq uch taraflama asosdagi lizing kelishuvida uskuna kelajakda ijaraga berish maqsadida sotib olinishi va undan faqat ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanish mumkinligi, shuningdek sotib olish huquqlari va shartnoma muddati tugagandan keyin sotib olish huquqlari va u sotib olinishining cheklangan bahosi albatta qayd etiladi. Shuning bilan bir qatorda, ushbu davlatlarda tavakkalchilik va vujudga keladigan mas'uliyat masalalari fuqarolik va savdo huquqining umumiy me'yorlari bilan hal etiladi.

Mamlakatlarning ikkinchi guruhida lizingning huquqiy tartibga solinishi ikki tamoyildan-vaqtinchalik foydalanish uchun beriladigan mol-mulk qiymatidan va lizing kelishuvi subyektlaridan mol-mulk qiymatidan va lizing kelishuvi subyektlaridan kelib chiqib tartibga solinadi. Masalan, Angliyaning qonunchilik amaliyotida agar lizing qiymati 2000 funt-sterlingdan oshmasa, foydalanuvchi esa-huquqiy shaxs bo'lsa, 1965-yilgi "Ijara-sotish to'g'risida"gi qonun me'yorlari qo'llaniladi.

Uchinchi guruh mamlakatlari uchun maxsus qonun hujjatlarining mavjud emasligi lizing rivojlanishiga to'sqinlik yaratmaydigan AQSh huquqiga xosdir. Bu yaqin vaqtlarga qadar AQShda amortizatsiya va soliq imtiyozlari lizingga murojaat qilish uchun asosiy turtki beruvchi omil bo'lib hisoblanganligi bilan izohlanadi. Ular o'z navbatida soliqqa tortish masalalari bo'yicha qonun hujjatlari bilan tartibga solingan. Ushbu guruhga kiruvchi mamlakatlarda lizing bitimlariga nisbatan shuningdek fuqarolik va savdo huquq qoidalari keng qo'llaniladi.

Bir qator mamlakatlarda lizing munosabatlarining subyektlari to'g'risidagi masala ham turlicha hal etiladi. Masalan, Fransiyada lizing bitimlarini banklar va ular bilan bog'liq bo'lgan maxsuslashtirilgan moliyaviy tashkilotlar amalga oshirishi mumkin. Belgiyada lizing bilan faqat Belgiya Qirolligi Iqtisodiyot vazirligining maxsus ruxsatnomasiga ega bo'lgan tashkilotlar shug'ullanishi mumkin. Italiyada lizingga beruvchi muayyan miqdordagi kapitalga ega bo'lishi lozim. AQShda lizing kompaniyalarining to'rt turi keng tarqalgan:

- banklar va ularning bo'limlari;
- texnika ishlab chiqaruvchi firmalarning lizing bo'yicha maxsuslashtirilgan bo'limlari;

- mustaqil lizing firmalari;
- boshqa tashkilotlar (sug'urta, brokerlik, investitsiya va h.);

Banklarning lizing biznesi doirasiga faollik bilan kirib borishi bir qator shartlar bilan belgilanadi, jumladan:

- deyarli barcha mamlakatlarda banklar tomonidan mol-mulkni lizingga berish, ya'ni bevosita ijaraga beruvchilar vazifasini bajarishga ruxsat berilganligi natijada o'tgan asrning 60-70 yillarida kompaniyalarda likvid mablag'larga keskin yetishmovchilik vujudga kelganda banklar zudlik bilan ushbu huquqdan foydalanib, uskunalarni lizingga taqdim eta boshladilar;

- bir qator mamlaktlarning qonun hujjatlari banklar tomonidan bir shaxsga o'z ustav kapitalidan 10% ortiq bo'lgan miqdorda kredit berishni taqiqlaydi, lizingga esa ushbu cheklovlar taalluqli emas;

- lizing operatsiyalari shakli bo'yicha kreditlashning variantlari bo'lganligi va bir qator hollarda ularning asosiy mohiyati moliyalashtirish (birinchi navbatda moliyaviy lizing) hisoblanganligi sababli banklar lizing loyihalarini tashkil etish va bajarishda kerakli ishtirokchilar bo'lib qoladilar. Hozirgi kunda yetarli darajada yirik hisoblangan operativ bankning bevosita ishtirokisiz amalga oshirilmaydi.

AQShda lizing rivojlanishining sabablaridan biri soliq imtiyozlari, ya'ni tezlashtirilgan amortizatsiya va investitsiya soliq imtiyozi (yangi investitsiyalarning 10% gacha qiymati soliq summasidan chegirilgan) hisoblanadi. Masalan, uskunani sotib olish bo'yicha xarajatlar -100 000 dollar, investitsiya bo'yicha imtiyoz -10% bo'lgan taqdirda, 10 000 dollarga teng bo'lgan summa soliq summasidan chegiriladi. Biroq, shartnoma AQSh Moliya vazirligining Ichki daromadlar boshqarmasi tomonidan ijara uchun belgilangan qoidalarga muvofiq bo'lgan holdagina soliq imtiyozlari bo'yicha huquq paydo

bo'ladi. AQSh Moliya vazirligining Ichki daromadlar boshqarmasi tomonidan:

- lizing 30 yildan kam bo'lgan muddatda amal qilishi;
- lizing bilan mol- mulk oqilona bozor bahosidan kam bo'lgan bahoda sotib olish imkoniyati nazarda tutilmasligi, masalan 1 dollarga;
- lizing to'lov jadvalida dastavval yuqori miqdordagi to'lovlarni, keyinchalik esa-kam miqdordagi to'lovlarni nazarda tutmasligi belgilangan. Bu lizingdan soliqdan bosh tortish vositasi kabi foydalanilayotganligi to'g'risida dalolat berar edi;
- lizing ijaraga beruvchini foydaning me'yoriy bozor darajasi bilan ta'minlashi;
- lizing muddatini uzaytirish uskunaning me'yoriy bozor qiymatini hisobga olish bilan belgilanadi.

Lizing taraflarga ahamiyatli darajada soliq imtiyozlarini taqdim etishi munosabati bilan soliq idoralari avvalambor u ushbu imtiyozlardan foydalanish maqsadida taraflar tomonidan lizing shartnomasi shaklidagi niqoblangan oldi-sotdi emasligini aniqlaydilar. Bunda amaliyot bir qator me'yoriy hujjatlarga tayanadi. AQShning Ichki daromadlar boshqarmasi lizingning muntazam ravishda chop etadi, ularda lizing shartnomasi va shartli oldi-sotdi shartnomasi o'rtasidagi farqlarni belgilash uchun asosiy mezonlar bayon etiladi.

Agar ijaraga beruvchi mol-mulkni amalda uning butun foydalanish muddatida ishlatmasa, shartnoma imtiyozli soliqqa tortish maqsadida tuzilgan hisoblanadi (lizing kompaniyasiga mol-mulk egasi sifatida qaraladi). Amaliyot shartnoma lizing shartnomasi sifatida tan olinmagan sud ishlarining asosiy qismi mol-mulkdan aksariyat butun iqtisodiy foydalanish muddatida ishlatilgan shartnomalarga taaluqliligini ko'rsatadi.

Agar mol-mulkka egalik qilish huquqi ijaraga beruvchiga o'tkazilsa, shartnoma oldi-sotdi shartnomasi kabi hisoblanadi. Agar Ushbu mol- mulkdan vaqtinchalik foydalanish uchun to'lovlar amaldagi haqqoniy stavkalardan ahamiyatli darajada yuqori bo'lgan taqdirda Ushbu shartnoma lizing

shartnomasi kabi hisoblanmaydi.

Ushbu holatda shubhasiz lizing shartnomasi hisoblangan shartnoma bo'yicha to'lovlar hisoblash nuqtasi kabi olinadi. Shartli ravishda sotishda sotuvchi, odatda lizing kompaniyalaridan farqli mol-mulk qiymatini o'ziga tezkor qaytarish holati bunday omil qabul qilinishi uchun asos bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun oshirilgan davriy to'lovlar tuzilgan shartnoma lizing shartnomasi emas, balki shartli ravishda oldi-sotdi shartnomasi ekanligidan dalolat berishi mumkin. Agar sotib olish bo'yicha opsion bahosi boshqa to'lovlarga nisbatan pastroq bo'lgan taqdirda ham shartnoma, shuningdek, oldi-sotdi shartnomasi kabi tavsiflanadi.

Yaponiyada lizing biznesi XX asrning 60-yillaridan boshlandi. Lizing operatsiyalari shu qadar yuqori sur'atlarda rivojlandiki, natijada Yaponiya lizing operatsiyalari hajmi bo'yicha AQShdan keyin ikkinchi o'rinni egallaydigan davlatga aylandi.

Lizing faoliyati rivojlangan jahonning ayrim mamlakatlarida, xususan, Fransiyada, Belgiyada, Ispaniyada maxsus lizing qonunchiligi mavjud. Ushbu mamlakatlarning me'yoriy hujjatlarida lizing tushunchasiga ta'rif berilgan, moliyaviy lizing (moliyaviy ijara) shartnomasi tuzilganligi to'g'risida dalolat beruvchi belgilar qayd etilgan, lizingga beruvchi javob beradigan talablar, shuningdek lizing muddati va mol- mulkning me'yoriy xizmat qilish muddati o'rtasidagi mutanosiblik shakllantirilgan, lizingga beruvchi, lizingga oluvchi va mol-mulkni sotuvchi o'rtasidagi munosabatlar tartibga solingan.

Yaponiyada lizing munosabatlarining birlamchi huquqiy asosi bo'lib, Fuqarolik kodeksi hisoblanadi. Fuqarolik kodeksiga ko'ra, moliyaviy lizing quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- lizing muddati qat'iy belgilab qo'yiladi va lizing to'lovlarining jami summasi lizingga berilgan uskunani sotib olish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar summasidan kam bo'lmasligi kerak;

- lizingga oluvchi ijaraga olingan aktivdan kelgan barcha daromadlardan foydalanish huquqiga ega, lizing shartnomasi muddati davomida

foydalanilayotgan aktiv bo'yicha barcha xarajatlarni qoplashi zarur;

- moliyaviy lizing shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish mumkin emas.

AQShda tuzilgan lizing shartnomalarining asosiy qismida ijaraga oluvchi u tomonidan foydalanilgan mol-mulkni shartnoma muddati tugagandan keyin sotib olish huquqi to'g'risida izoh mavjud. Biroq lizing amalda kuchga ega ekanligini tasdiqlash uchun ijaraga oluvchi tomonidan mol-mulk uchun to'lashi lozim bo'lgan baho ijaraga beruvchi mol-mulkni boshqa har qanday shaxsga sotishi mumkin bo'lgan bahoga teng bo'lishi (ya'ni «haqqoniy bozor bahosi» bo'lishi) lozim.

AQShda 1997-yilga qadar firmalar uskunalar qiymatini o'zlarining balanslarida aks ettirmasdan ularni ijaraga olishlari mumkin edi, ya'ni balansdan tashqari schyot mavjud edi. Shu bois, yirik miqdorda qarzдор bo'lgan firmalar, qarzning oshgan summasini ko'rsatmagan holda qo'shimcha ravishda uskunalarni olishlari mumkin edi. Shunday qilib, haqiqiy qarz investorlar va eksportyorlarga ma'lum bo'lmasdan yashirinib qolar edi. 1976-yilda Moliyaviy hisobning standartlashtirish boshqarmasi tomonidan ayrim moliyaviy bitimlarni mol-mulkni sotib olish kabi hisobga oladigan va o'z zimmasiga moliyaviy majburiyatlarni qabul qilishga majbur etadigan 13-sonli qaror qabul qilingan. Ushbu qarorning maqsadi «haqiqiy lizing»ni lizing yordamida sotib olishdan farqlashdan iborat edi.

Me'yoriy hujjatlarda bitimlarni lizing operatsiyalariga mansub deb tan olish qoidalari ham ahamiyatli ravishda farqlanadi. Bundan tashqari, lizingning alohida xususiyatlari bo'yicha qonun hujjatlarining o'zi bir mamlakatning o'zida vaqti-vaqti bilan o'zgarib turadi.

Belgiyada:

- mol-mulk ijaraga oluvi tomonidan faqat kasbiy maqsadlarga ishlatilishi lozim;

- mol-mulk ijaraga beruvchi tomonidan kelgusi lizingga berish maqsadida sotib olinishi va kelgusidagi ijaraga oluvchining talablariga javob berishi lozim;

- lizing muddati mol-mulkdan foydalanish muddatidan oshishi mumkin emas;

- ijara to'lovi shunday belgilanishi kerakki, u kontrakt amal qilishi muddati davomida ijaraga beruvchi ijaraga olingan mol-mulk qiymatini qoplash imkoniyatini yaratishi lozim;

- kontraktda ijaraga oluvchi lizing muddati tugagandan keyin shartnomada kelishilgan mol-mulkning qoldiq qiymatiga mos bo'lgan narxda ijaraga olingan mol-mulkka ega bo'lish huquqi nazarda tutilishi lozim.

Angliyada agar kontrakt:

- mol-mulk ishlatiladigan muddatdan 75% kam bo'lmagan muddatga tuzilganda;

- uning amal qilish muddati davrida mol-mulk qiymati to'liq (yoki ahamiyatli) to'lanishi nazarda tutilganda;

- unda lizingni imtiyozli shartlar (bankdan qarz olishga qaraganda) asosida qaytadan tiklash imkoniyati nazarda tutilganda u lizing kontrakti hisoblanadi.

Avstriyada:

- lizing kontraktining asosiy muddati mol-mulkni iqtisodiy ishlatish muddatining 40-80%ini tashkil etishi kerak;

- sotib olish opsionining qiymati opsion sotiladigan paytdagi mol-mulkning qiymati bilan mos bo'lishi lozim;

- lizing shartnomasi uzaytirilgan muddatda (agar bunday holat kuzatilganda) davriy to'lovlar nominal bo'lishi kerak;

- agar faqat foydalanuvchi uchun kerakli bo'lgan maxsus mol-mulk lizing kontraktining ashyosi hisoblangan taqdirda, foydalanuvchi bunday mol-mulkning iqtisodiy mulkdori hisoblanadi.

Buyuk Britaniyada lizing faqat 1979-yildan, ya'ni soliq imtiyozlari joriy etilgandan keyin keng rivojlandi. Kompaniya investitsiya qilingan yilda soliqqa tortiladigan foydadan 100% investitsiyalarni chegirishi mumkin edi. Ushbu imtiyozlar katta daromadga ega bo'lgan kompaniyalarga ahamiyatli, lekin ulardan bilvosita ijaraga oluvchilar ham foydalanishlari mumkin edi.

Kompaniya soliq imtiyozlaridan faqat hisobot yilining oxirida foydalanish mumkin edi. Shuning uchun agar u investitsiyalarni yilning boshida amalga oshirgan bo'lsa, u ushbu imtiyozlardan olinadigan nafni bir qancha vaqt kutishiga to'g'ri kelar edi. Biroq agar kompaniya uskunani lizing kompaniyasiga sotib va undan keyin ijaraga olgan taqdirda (lizing kompaniyasida moliyaviy yil oxiri oldinroq yakunlanishi sharti bilan) bilvosita naflar tezroq olinadi. Shuning uchun lizing kompaniyalari moliyaviy yillari turli muddatlarda yakunlanadigan filiallar ochishga urinadilar. Soliq investitsiya imtiyozi tekin bo'lmasdan ijara to'lovlari bo'yicha soliq orqali qaytarilar, lekin shunga qaramasdan u mol-mulk qiymatining 52% iga teng bo'lgan foizsiz qarz hisoblanar va ijaraga oluvchi uchun lizing qiymatiga ta'sir ko'rsatar edi.

Germaniyada lizing mol-mulkini soliqqa tortishda iqtisodiy yondashish belgilovchi omil hisoblanadi:

- agar mol-mulkdan me'yoriy foydalanish muddati ijaraning asosiy muddatidan ahamiyatli darajada yuqori bo'lsa va ijaraga oluvchi uni uzaytirish huquqiga va sotish paytida ijara to'lovidan yoki sotib olish bahosidan ahamiyatli darajada kam miqdorda faqat yig'im to'lashi kerak bo'lgan opsion huquqiga ega bo'lgan taqdirda, moliyaviy lizing holatida mol-mulk bo'yicha soliqlarni odatda ijaraga oluvchi to'laydi;
- ijaradan foydalanish muddati va ijara vaqti taxminan bir-biriga mos bo'lgan taqdirda ham ushbu qoida qo'llaniladi;
- ijaraga oluvchi tomonidan soliq to'lash majburiyati faqat ijaraga oluvchi, xo'jalik mulkdori sifatida soliq imtiyozlariga ega bo'lgan investitsiyalar bo'yicha huquqdan foydalanishi mumkinligini ifodalaydi;

- mol-mulk bo'yicha soliqlarni to'lash har bir holatning vaziyatlarini hisobga olgan holda lizingga beruvchi yoki ijaraga oluvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Lizing haqiqatda ham g'arb mamlakatlarining milliy iqtisodiyotlarini rivojlantirish, xalqaro bozorda ularning raqobatbardoshligini oshirish uchun samarali omil bo'lib qoldi. Shuning bilan bir qatorda, g'arb tadbirkorlik amaliyotida mustahkam o'rin egallagan har qanday iqtisodiy hodisa, xo'jalik tizimini qayta qurish munosabati bilan O'zbekistonda ham o'z o'rnini topmoqda. Biroq g'arb mamlakatlari uchun xos bo'lgan, mamlakatimiznikidan ahamiyatli darajada va tarixiy farqlanadigan, o'zbek zaminida qo'llanish uchun keltirilgan iqtisodiy hodisalar o'ziga xos bo'lgan shakllarga ega bo'lib qolishi tabiiydir. 30-40 yillar muqaddam g'arb iqtisodiyotchilarining mohiyati bo'yicha lizingga jonli qiziqishi bizning zamondoshlarimizning qiziqishidan ahamiyatli farqlanadi.

Jahon xo'jaligida ilmiy-texnikaviy inqilobning yuz berishi, iqtisodiy faollikning keskin rivojlanishi, iqtisodiyotning investitsiyaga bo'lgan ehtiyojlari keng ko'lamda o'sishi, iqtisodiyotni faqat an'anaviy yo'llar bilan moliyalashtirish va ishlab chiqarishni qayta texnikaviy qurollash hisobiga qondirib bo'lmaydigan xolisona vujudga kelgan iqtisodiy o'sishning ahamiyatli sur'atlari haqiqatdan ham o'z vaqtida g'arb davlatlarida lizing rivojlanishida navbatdagi, alohida turtkini olgan. O'sha vaqtdagi yanada ham keskinlashayotgan raqobatda lizing bitimlari ishlab chiqaruvchilar uchun iste'molchilar doirasini kengaytirish va yangi mol yetkazib berish bozorlarini o'zlashtirishda qo'shimcha eng dolzard manbalardan biri bo'lib qoldi.

Xo'sh, mamlakatimizda lizing sohasidagi rivojlanish qanday kechmoqda? Albatta, Hozirgi paytda mamlakatimizda lizing sohasida o'sib borayotgan faollikni kuzatmoqdamiz, bu asosan iqtisodiy vaziyat holatidan kelib chiqmoqda. Bizningcha, lizingni rivojlantirish uchun quyidagi asosiy shart-sharoitlarni keltirish mumkin:

- ma'naviy eskirgan va jismoniy ishlab bo'lgan uskunalarning yetarli darajada ko'p miqdorda mavjudligi;
- ishlab chiqarish vositalari bilan savdo-sotiq zaif tashkil etilgan sharoitlarda sotilmayotgan tovar-moddiy boyliklar zaxiralarining mavjudligi;
- ishlab chiqarish va rentabellik uskunalarning qimmatligi oqibatida oddiy bank kreditidan foydalanilgan holda kichik va o'rta firmalar o'zlarining ishlab chiqarishini tashkil eta olmasligi;
- ko'p yillardan beri ish kuchi va xom ashyoning nisbatan kam baholanishi, shuningdek turli tovarlar eksport qilinishi.

Lizing kompaniyalari tomonidan ushbu vaziyatlarni hisobga olish va amalga oshirish borasida ish olib borishi bizning lizing kompaniyalarimiz o'zlarining rivojlanishida yangi bosqichlarga ko'tarilishiga imkon beradi deb hisoblaymiz. Bozorda yangi o'rinlarini topib va ularni to'ldirib, lizing firmalari bo'lg'usi va amaldagi tovar ishlab chiqaruvchilarga respublikaning umumiy ichki yalpi mahsulotining hajmiga o'z hissasini qo'shishda yordam beradi.

1.3. Lizing turlari va ularning tavsifi

Zamonaviy bozor iqtisodiyotida lizing xizmatlarining ilmiy asoslangan tasniflanishi shu shakllar bilan har birining vazifasi va muhim tafovutlarni hamda ularning o'rnini to'g'ri tushunishga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasining 1999-yil "Lizing to'g'risida" gi qonunda lizingning 2 turi: moliyaviy va operativ turlari belgilangan. Jahon amaliyoti va mavjud tasniflarga ko'ra lizing turlari ko'p bo'lib, ular quyidagilar:

1. *Moliyaviy lizing*, ya'ni mulk qiymati to'liq to'lanadigan lizing mulki, shu bilan tavsiflanadiki, lizing oluvchiga foydalanish uchun mulk beriladigan muddat davomiyligiga ko'ra lizing beruvchi mulk qiymatining butun yok ko'p qismi eksplutatsiya va amortizatsiya muddati yaqinlashadi. Bunda lizing beruvchi va lizing to'lovlari orqali mulkning butun qiymatini o'ziga qaytaradi va bitimdan tegishli foyda oladi. Bu lizingning eng ko'p tarqalgan turidir.

2. To'liq qoplanmaydigan lizing odatda *tezkor* hisoblanadi, chunki lizing

beruvchining lizing mulkini olishi va saqlashi bilan bog`liq sarflari qoidaga ko`ra to`liq qoplanmaydi. Bu lizing moliyaviy lizingdan shunday farqlanadiki, bunda sotib olish huquqi bo`lmaydi va lizing to`lovlari lizing beruvchining barcha sarflarini qoplamaydi.

3. Lizing operatsiyasi o`tkaziladigan bozor shu`basiga bog`liq holda lizing bitimlariga *ichki lizing* turi mavjud bo`lib, bunda bitimda bitta mamlakat bo`ladi.

4. *Xalqaro tashqi lizingda* esa lizing beruvchi va lizing oluvchi turli mamlakatlarda bo`ladi, ya`ni mulkni sotuvchi boshqa mamlakatda bo`lib, boshqa davlat rezidenti bo`lishi mumkin. Lizinga berilayotgan uskunaga xizmat ko`rsatish, lizing oluvchi zimmasida bo`ladi. Bunday holda uskunaga xizmat ko`rsatish bo`yicha chiqimlar lizing to`lovlariga qo`shiladi. Bunday lizing moliyaviy lizing uchun xos.

5. *To`liq lizing* uskunaga ko`rsatish shart bo`lgan texnikaviy xizmat ko`rsatish, sug`urtalash va lizing beruvchining boshqa operatsiyalari inobatga olinadi.

6. Lizing munosabatlari tavsifiga bog`liq holda lizing bitimlari *qaytarma va aralash* bo`ladi. *Qaytarma lizing*- bu tobora keng qo`llanilayotgan lizingning bir shakli bo`lib, korxona uskunaga ega bo`lgan holda, asosiy ishlab chiqarish faoliyati uchun mablag` yetmay qolganda foydalanadi. Shuning uchun korxona lizing kompaniyasini topadi va unga o`z mulkini sotadi, kompaniya esa o`z navbatida esa shu korxonaga lizing beradi.

7. *Aralash lizing*- o`z tarkibida moliyaviy va operativ lizing unsurlariga ega bo`lgan lizing shartnomasining turi. Aralash lizingdan foydalanish sharoitlarida lizing beruvchi muayyan sotuvchidan lizing oluvchi ko`rsatmasi bilan mulkni xususiyga oladi va lizing oluvchiga lizing predmeti sifatida beriladi.

8. Lizing mulkni moliyalashda qatnashuvchilarga bog`liq holda *bo`linma lizing* yoki qo`shimcha mablag` jalb etiladigan lizing, yoki lizing beruvchi qisman moliyalaydigan lizing bo`lib, bu lizingning eng murakkab turi, chunki u ko`p yo`nalishdagi moliyalash bilan bog`liq, odatda unda murakkab ko`p kapital

talab etadigan ko'p loyihalarni amalga oshirish uchun foydalaniladi. Lizing beruvchi uskunani sotib olar ekan o'z mablag'idan butun qiymatini emas, balki uning bir qisminin to'lashligi lizingning bu turini o'ziga xos tomoni hisoblanadi. Qolgan miqdorni u bir yoki bir necha kreditoridan qarzga oladi. Bunda lizing kompaniyasi barcha soliq imtiyozlarini foydalanishda davom etadi, bular ijaraga olinayotgan mulk to'liq qiymatidan kelib chiqib hisoblanadi.

9. *Ommaviy lizing*- boshqa xil va tur lizinglardan hu bilan farqlanadiki, lizing beruvchi sifatida bir guruh (aksiyadorlar) ta'sis etadi va ishonchli vakil tayinlaydi, keyinchalik lizing munosabatlarini amalga oshirish bo'yicha barcha zarur operatsiyalar olib boradi.


10. Lizing mulkining yangilanishi muddatiga bog'liq holda *yangilanadigan lizing* da ijarachi bo'yicha uskuna vaqti-vaqti bilan yangi, xuddi shu turdagi ancha takomillashgan namuna bilan almashtirilib turishi ko'zda tutiladi.

11. *Revolver lizing* yoki uskuna tadrijiy almashtiriladigan lizing, bunda lizing oluvchidan uning texnologik xususiyatiga ko'ra muntazam ravishda turli uskunalar talab etiladi. Bunday hollarda lizing shartnomasi shartlariga muvofiq lizing oluvchi muayyan muddat o'tguncha ijaradagi mulkni lizing boshqa obyektga almashtirish huquqiga ega bo'ladi.

Lizing munosabatlari ishtirokchilarining tarkibidan (subyektlardan) kelib chiqib quyidagilarni farqlaydilar:

Bevosita lizing - an'anaviy uch taraflama bitim (mol yetkazib beruvchi-lizingga beruvchi-lizingga oluvchi) yoki yirik murakkab bitimlarda ishtirokchilar soni uchtdan ko'p bo'lgan ko'p taraflama bitim, bunda lizing kompaniyasi lizing bo'yicha tijorat banki yoxud boshqa moliyaviy-kredit institutlari yoxud yirik lizing bitimlarini moliyalashtirish uchun o'z kapitalini birlashtirgan shunga o'xshash lizing kompaniyalari bilan birgalikda chiqadi.

Demak, bevosita lizing, bunda mol-mulkni taqdim etish bevosita lizingga beruvchi orqali amalga oshiriladi va quyidagi 1.3.1-chizma orqali tahlil qilishimiz mumkin.

Bevosita lizing jarayoni

Bu yerda:

- 1 - lizing kontrakti tuzilishi;
- 2 - muntazam lizing to'lovlari;
- 3 – oldi-sotdi kontrakti;
- 4 - uskuna to'liq qiymatining to'lovi;
- 5 - uskunani yetkazib berish.

Endi bevosita qaytariladigan lizingga to'xtalib o'tsak. «Qaytariladigan lizing» lizing bitimlarining bir turi hisoblanadi. Mohiyati bo'yicha u ikki taraflama lizing bitimidir. Lizing shartnomalarining bunday lizingga oluvchi bir vaqtning o'zida lizingga olinadigan mol-mulkning «yetkazib beruvchisi» bo'lib hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, uskunaning egasi uni lizing kompaniyasiga sotadi va bir vaqtning o'zida lizingga oluvchi sifatida u bilan ushbu uskuna bo'yicha lizing shartnomasini tuzadi. Bitim quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- 1- ijaraga beruvchi va ijaraga oluvchi o'rtasida lizing kelishuvi tuziladi;
- 2- lizing firmasi ijaraga oluvchi-uskuna egasidan uskunani sotib oladi;
- 3- ijaraga oluvi lizing kontraktining shartlariga muvofiq muntazam ravishda ijara to'lovlarini amalga oshiradi.

Bunday bitimning dastlabki mulkdor, keyinchalik esa uskunani lizingga oluvchi afzalliklari quyidagilardan iborat:

- uskuna sotib olinib, ushbu uskunani sotib olish uchun ahamiyatli mablag'lar jalb qilinishi uning moliyaviy ahvoli yomonlashishiga olib kelganligi

yoki olib kelishi mumkinligi ayon bo'lgandan keyingi holatlarda u lizing kompaniyasining xizmatlaridan foydalanishi mumkin;

- u lizing kompaniyasidan uskunaning to'liq qiymatini oladi, Ushbu uskunaga egalik qilish va foydalanish huquqini saqlab qolgan holda uni sotib olish uchun sarflangan mablag'larni qaytaradi;

- u o'ziga kerakli bo'lgan uskunaga ega bo'lgan va undan foydalangan holda lizing kompaniyasi bilan muzokaralarni olib borishi mumkin (ushbu muzokaralar ayrim hollarda uzoq muddatli cho'zilishi mumkin).

- ijara to'lovlari korxonaning soliqqa tortiladigan foydasidan chegiriladi va joriy tezkor xarajatlar kabi hisobga olinadi;

- ijaraga oluvchidan bank kreditini olishdan kamroq qo'shimcha kafolatli ta'minot taqdim etilishi talab qilinadi (aksiyalar, obligatsiyalar, bank kafolati yoki kafolatlarning qandaydir boshqa shakllari).

Shunday qilib, uskuna sotib olish paytida qandaydir sabablarga ko'ra lizing imkoniyatlari to'g'risida bilishni xohlamagan, bilishga imkoniyati bo'lmagan yoki umuman bilmagan kompaniyalar uskuna sotib olingandan keyin uning barcha afzalliklaridan (jumladan jadallashtirilgan amortizatsiya, lizing to'lovlarini tannarxga o'tkazish va boshqalardan) to'liq foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Lizingning ushbu chizmasi ko'pchilik holatlarda aynan moliyaviy ijara shartnomasi uchun nazarda tutilgan soliq imtiyozlarini olish uchun foydalaniladi.

Nihoyat, qaytariladigan lizing ko'pchilik holatlarda korxona moliyaviy holatini yaxshilash uchun samarali va nisbatan arzon usul bo'lib hisoblanadi. Lizingning ushbu turida ijara to'lovlarining miqdori asosan kreditning joriy qiymatiga va amortizatsiya chegirilgan ijaraga olingan uskunaning qiymatiga bog'liq bo'ladi.


Uskunani sotib olish va uni lizingga oluvchiga sotish bahosi o'rtasidagi farq odatda ijaraga oluvchiga to'lanmasdan, amortizatsiya hisobga olinadi yoxud ijara to'lovlari orqali mutanosib ravishda taqsimlanadi. Agar bitim tuzish paytida uskunaning bozor qiymati uning amortizatsiyalanmagan qoldiq

qiymatidan kam bo'lgan taqdirda, farq ijaraga oluvchining balansida zarar kabi aks ettiriladi. Ishlatishda bo'lgan uskunadan yangi qurilayotgan obyektlarni moliyalashtirish manbai sifatida foydalanish qaytariladigan lizingning muhim afzalligi hisoblanadi.

Qaytariladigan lizing, bunda mol-mulk egasi uni bo'lg'usi lizingga beruvchiga sotadi, ko'pchilik holatlarda uning o'rnida tijorat banki chiqadi va bir vaqtning o'zida, ushbu mulkdan foydalanuvchi sifatida u bilan munosabatlarga kiradi va ushbu jarayonni quyidagi 1.3.2-chizma orqali ko'rib chiqishimiz mumkin:

1.3.2-rasm

Qaytariladigan lizing jarayoni



Bu yerda:

1-uskuna qiymati;

2-ijara to'lovlari.

Ko'pchilik holatlarda lizing bevosita emas, balki vositachi orqali amalga oshiriladi. Asosiy lizingga beruvchi mavjud, u vositachi odatda lizing kompaniyasi orqali uskunani lizingga oluvchiga ijaraga topshiradi. Bunda vositachining vaqtinchalik to'lov qobiliyati bo'lmagan yoki u inqirozga uchragan taqdirda, lizing to'lovlari asosiy lizingga beruvchiga kelib tushishi lozimligi shartnomada nazarda tutiladi. Bunga o'xshash bitimlar «ikkilamchi lizing» deb nomlanadi.

Xalqaro doirada «dabl dipping» (double dipping) deb nomlanadigan ikkilamchi lizing bitimlar ikki va undan ko'p mamlakatlarda soliq imtiyozlarining kombinatsiyasidan foydalaniladilar. Ushbu bitimlarning samaraliligi shuning bilan bog'liqligi, masalan, Buyuk Britaniyada agar lizingga beruvchi mulkchilik huquqiga, AQShda esa – lizingga beruvchi egalik qilish huquqiga ega bo'lgan taqdirda, soliq imtiyozlaridan olinadigan naf ko'proq

bo'ladi.

Buyuk Britaniyadagi lizing kompaniyasi uskuna (mulkchilik huquqi)ni sotib oladi va uni amerikalik lizing kompaniyasiga beradi (egalik qilish huquqi), u esa, o'z navbatida, ularni mahalliy lizingga oluvchilarga o'tkazadi.

Lizingga beriladigan mol-mulkning turiga qarab quyidagilarni farqlaydilar:

- faol bo'lmagan (ko'chmas) mol-mulk lizingi;
- faol (ko'char) mol-mulk lizingi yoki mashina-texnikaviy lizing.

Mol – mulk o'zini o'zi qoplash darajasi bo'yicha quyidagilar ajratiladi:

- to'liq o'zini o'zi qoplaydigan lizing, bunda bir shartnoma amal qilish muddatida ijaraga berilgan mol-mulkning qiymati lizingga beruvchiga to'liq to'lanadi. Lizing shartnomasi tugagandan keyin lizingga oluvchi uskunani qoldiq yoki boshqa kelishilgan narxda sotib olish imkoniyati beriladi;

- to'liq o'zini o'zi qoplaydigan lizing, bunda bir shartnoma amal qilish muddatida ijaraga berilgan mol-mulkning faqat bir qismi qoplanadi, bundan keyin esa mol- mulk lizingga beruvchiga qaytariladi yoxud lizing shartnomasining muddati uzaytiriladi.

Lizingga beriladigan mol-mulkning amortizatsiya shartlariga ko'ra quyidagilarni farqlaydi:

- to'liq amortizatsiyalanadigan lizing va tegishli ravishda, lizing obyektining qiymati to'liq to'lanadigan lizing;
- to'liq amortizatsiyalanmaydigan lizing, bu qiymati qisman to'lanadigan lizing.

Yuqorida qayd etilgan bir-biri bilan uzluksiz bog'liq bo'lgan ikki turkumlanish belgilari asosida moliyaviy va tezkor deb ataladigan lizingni ajratadilar. Amaliyotda, ayniqsa moliyaviy-kredit institutlari tomonidan ko'proq moliyaviy lizing qo'llaniladi. Bu uning o'ziga xos bo'lgan belgilari bilan izohlanadi.

Moliyaviy lizing (financye leasing) o'zini o'zi to'liq qoplaydigan mol-

mulk lizingi yoki uning qiymati to'liq to'lanadigan lizing hisoblanadi (full-payout lease). Shartnoma amal qilish muddatida lizingga beruvchi mol-mulkning butun qiymatini o'ziga qaytarganda va lizing operatsiyasidan foyda olganda lizingning bunday turi kuzatiladi. Moliyaviy lizingda uskuna vaqtinchalik foydalanishga berilgan muddat vaqti bo'yicha uning to'liq amortizatsiyalanadigan muddati bilan mos keladi.

Bunday turdagi lizing bitimlari mol-mulkni ataylab mulk sifatida sotib olish va keyinchalik uni vaqti bo'yicha ishlatish va mol-mulk qiymatining butun yoki ko'p qismi amortizatsiyalanishi yaqinlashadigan muddatga vaqtinchalik egalik qilishga va foydalanishga berish operatsiyasi hisoblanadi. Shartnoma amal qilish muddatida lizingga beruvchi lizing to'lovlari hisobiga mol-mulkning butun qiymatini o'ziga qaytarib oladi va moliyaviy bitimdan foyda oladi.

Moliyaviy lizingni tavsiflovchi asosiy belgilar quyidagilardan iborat:

- lizingga beruvchi mol-mulkni o'zi foydalanishi uchun emas, balki uni lizingga berish uchun ataylab sotib oladi;
- mol-mulkni va uning sotuvchisini tanlab olish huquqi foydalanuvchida qoladi;
- mol-mulk egasi u lizingga berish uchun ataylab sotib olinayotganligini biladi; mol-mulk bevosita foydalanuvchiga yetkazib beriladi va u tomonidan ishlatish uchun qabul qilinadi;
- mol-mulkni sifati, uning butligi, kafolat muddati buzilishlarini tuzatish bo'yicha da'volar lizingga oluvchi tomonidan bevosita mol-mulk sotuvchisiga yo'llaniladi;
- mol-mulk tasodifan nobud bo'lishi va buzilishi tavakkalchiligi mol-mulk ishlatilishga qabul qilish dalolatnomasi imzolanganidan keyin lizingga oluvchiga o'tadi.

Moliyaviy lizing mustaqil nomlanadigan bir necha turlarga ega. An'anaviy moliyaviy lizing o'zaro munosabatlarning uch taraflama tavsifga egalik va mol-mulk qiymati to'liq qoplanishi bilan tasniflanadi. Lizingga

oluvchining talabnomasi bo'yicha lizingga beruvchi mol yetkazib beruvchidan kerakli bo'lgan uskunani sotib oladi va uni lizingga oluvchiga beradi hamda lizing to'lovlari hisobiga o'zining moliyaviy xarajatlarini qoplaydi va foyda oladi.

Operativ lizing moliyaviy lizingning evolyutsion rivojlanishi natijasidir. Operatsion lizing bitimi bo'yicha-bino va asbob-uskunalarni qisqa vaqtga (bir kundan bir yilgacha yoki ko'proqqa) lizingga olganda lizing beruvchi asosiy vositalarni ta'mirlash va lizingni amalga oshirish bo'yicha xarajatlar deb ataluvchi joriy xarajatlarni to'lash, masalan soliqlar va mulk sug'urtasini to'lashni o'z zimmasiga oladi. Operativ lizing moliyaviy lizingdan quyidagi jihatlar bilan farq qiladi:

- qisqa muddat;
- lizing obyektni lizing shartnomasi muddati tugaganidan so'ng lizing beruvchiga qaytarilishi;
- lizingga beriladigan mulklarning chegaralanganligi;
- lizing beruvchi lizingga beriladigan predmetni aniq yetkazib beruvchisini topish majburiyatiga ega emasligi;
- hisobga olishdagi farqlar;
- oldindan qisman to'lovning, ya'ni avansning mavjud emasligi (bir oy muddatga foydalanishga beriladi).

Agar lizing shartnomasida yuqoridagi talablarning birortasi ham ko'rsatilmagan bo'lsa, u holda lizing tezkor lizing hisoblanadi.

Lizing ixtiyoriy ishlab chiqarish moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga keng ko'lamda kapital mablag' jalb qilishning asosiy moliyaviy vositasi sifatida yuqorida ta'kidlanganidek, bank krediti, ssuda, kechiktirilgan to'lovni sotib olish va shunga o'xshash moliyaviy richaglarga qaraganda birmuncha ustunliklarga ega bo'lib, ularning ayrimlarini quyidagilarda ko'rish mumkin:

- lizing 100 foiz qarz olishni ko'zda tutadi va qarzning hammasini tezda qaytarishni talab etmaydi;
- lizing bo'yicha shartnoma tuzish ssudaga qaraganda osondir; chunki

bitimni ta'minlashni uskunaning o'zi amalga oshiradi. Bu ayniqsa, kichik va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilarga qulay.

Tezkor lizing (operative leasing) – bunda shartnoma muddati mol - mulkning iqtisodiy ishlatish muddatidan kamroq. Tezkor lizingda ijaraga mol-mulkning qiymati qisman to'lanishi kuzatiladi (non-fullpazout lease) va shuning uchun lizingga beruvchi uni, odatda, turli foydalanuvchilarga bir necha bor vaqtinchalik foydalanishga berishga majbur.

Lizingning ushbu turi buyum hayot siklining muddati ijaraning kontrakt muddatidan ahamiyatli darajada yuqori bo'lib, uskuna ijaraga qisqa muddatlarga berilganda qo'llaniladi. Tezkor lizingda ijara vaqti davomida uskuna to'liq amortizatsiyalanmaydi va qaytadan ijaraga berilishi yoki ijaraga beruvchiga qaytarilishi mumkin. Amaliyotda tezkor lizing operatsiyalari uch yillik davrdan oshmaydi. Bunday bitimlarda ijaraga beruvchi ijaraga oluvchini oldindan ogohlantirish sharti bilan kontrakti bekor qilish huquqini saqlab qoladi. Lizingning ushbu turi ijara obyekti saqlanishi uchun ijaraga beruvchi ko'proq mas'uliyatga egaligini nazarda tutadi. Ijaraga beruvchi uskunani ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish uchun mol yetkazib beruvchi firma bilan mustaqil shartnoma tuzish bo'yicha o'ziga majburiyat oladi.

I-bob bo'yicha xulosa.

Lizing shartnomasining muddati mol-mulkning me'yoriy xizmat muddatidan ahamiyati kam, shu sababli lizingga beruvchi mol-mulk qiymatini bir shartnomadan keladigan tushumlar hisobiga qoplashni nazarda tutmaydi; mol- mulk lizingga ko'p marotaba beriladi; lizingga oluvchi talabnomasi bo'yicha olingan mol-mulk emas, balki lizing kompaniyasida mavjud bo'lgan mol-mulk beriladi. Boshqacha qilib aytganda, lizing kompaniyasi mol-mulkni sotib olar ekan, uning aniq belgilangan foydalanuvchisini bilmaydi. Shu bois, tezkor lizingda ixtisoslashtirilgan lizing kompaniyalari yangi bilan bir qatorda foydalanishda bo'lgan lizing mol-mulk bozori konyukturasini yaxshi bilish lozim;

- texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash, sug'urtalash bo'yicha majburiyatlar lizing kompaniyasining zimmasiga yuklatiladi;
- agar ko'zda tutilmagan vaziyatlarga ko'ra mol-mulk foydalanish uchun yaroqsiz holga kelsa, lizingga oluvchi shartnomani bekor qilishi mumkin;
- lizing mol-mulkining tasodifan nobud bo'lish, yo'qotilish, buzilish tavakkalchiligi lizing beruvchining zimmasida bo'ladi;
- tezkor lizingda lizing to'lovlarining miqdori moliyaviy lizingga qaraganda yuqoriroq bo'ladi, chunki lizingga beruvchi, masalan, mol-mulkni qaytadan topshirish uchun mijozlar bo'lmasligi, mol-mulk buzilishi yoki nobud bo'lishi bilan bog'liq qo'shimcha tavakkalchiliklarni hisobga olish lozim;
- shartnoma muddati tugagandan keyin, odatda, mol-mulk lizingga beruvchiga qaytariladi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, lizingning quyidagi turlari mavjuddir: bevosita lizing, moliyaviy lizing, operativ lizing va tezkor lizing amaliyoti mavjuddir. Biroq, tezkor lizing amaliyoti paydo bo'lganligiga qaramasdan, ushbu tushuncha Rossiyaning me'yoriy – huquqiy asosiga mosligi yuzasidan shubhalar qolmoqda. Ko'pchilik ekspertlarning fikri bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 587-599- moddalariga muvofiq u yoki bu uskuna yuzasidan lizing bitimi faqat bir marotaba, ya'ni u lizingga beruvchi tomonidan lizingga oluvchi uchun sotib olingan paytda tuzilishi mumkin. Tezkor lizing ashyosi ijaraga oluvchi tomonidan qaytarilgan holatda (yoxud u tomonidan moliyaviy lizing muddati tugagunga qadar talab qilinib olsa), qaytadan ijaraga berilgan ushbu ashyo joriy ijara ashyosi bo'lib hisoblanadi

Shunday qilib, hozirgi zamonaviy jahon xo'jaligida, lizing munosabatlari oddiy ijara munosabatlaridan innovatsion lizing operatsiyalari darajasiga ko'tarildi.

II-BOB. “O‘ZQISHLOQXO`JALIKMASHLIZING”
ALK KOMPANIYASINING MOLIYAVIY-IQTISODIY HOLATI
VA UNING TAHLILI

2.1.O‘zbekistonda lizing kompaniyalarning boshqaruv tizimining
hozirgi holati

Boshqaruv tizimining samarali tashkil etilishi, uning insonparvarlik, iqtisodiy va oqilona usul bilan tashkil etilishi, pirovardida inson manfaatlari yotganligi, davlat siyosatining boshqaruviga ijobiy ta’siri dunyoda buyuk davlat paydo bo’lishi bilan yakunlanadi.

Hayotni tebratish, iqtisodiyotni yuqori sur’atlar bilan rivojlantirish - bu davlat, viloyat, shahar, tuman, qolaversa, oddiy xo‘jalik bo‘ladimi - avvalo, shu hududlar hamda xo‘jaliklarni boshqaradigan rahbar va mutaxassislarning aql- zakovati, bilimi va tajribasi, shijoat va qat’iyatiga bog‘liq ekanini bugungi kunda isbotlab berishning hojati yo‘q.¹⁵

Menejmentni jamiyatning iqtisodiy negizi bilan bog‘lab, shu bilan birga boshqaruvning ikki tashkiliy-texnikaviy va ijtimoiy-iqtisodiy tomonlarini hisobga olgan holda o‘rganish lozim.

Tashkiliy-texnikaviy boshqaruv aniq iste’mol qiymatini olish uchun mahsulot tayyorlashda mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi bilan ajralib turadi. Ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruv mavjud ishlab chiqarish munosabatlari bilan bog‘liq bo‘lib, menejment maqsadlarini belgilaydi.

Tashkiliy-texnikaviy boshqaruv mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligining oshishi uchun sharoit yaratishga imkon beruvchi faoliyat turidan iboratdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruvning maqsadi ishlovchilar samarali mehnat qilishi uchun sharoit yaratish ularni ijtimoiy himoya qilishning ishonchli umumdavlat tizimini shakllantirish, bandlikni ta’minlash va aholining kam ta’minlangan qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir. Shu o‘rinda

¹⁵ Karimov I.A. Odamlar tashvish bilan yashash –oliy burch. //Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10. – T.: “O‘zbekiston”, 2002.

mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov o'zining «O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida» asarida «Kuchli ijtimoiy siyosat, avvalo sermahsul mehnat qilish uchun yaxshiroq rag'bat va imkoniyatlar yaratishdan, iqtisodiy yo'l tanlash va faoliyat ko'rsatish erkinligiga bo'lgan kafolatli huquqni qaror topdirishdan, aholining mehnat va ijtimoiy faolligini oshirishdan ham iboratdir», deb ta'kidlagan edi.

Hozirgi kunda Respublikada lizing faoliyatini boshqarishda yirik qishloq xo'jaligi mashinasozligi korxonalari tomonidan, shu jumladan, yetakchi xorijiy kompaniyalar ishtirokida ishlab chiqarilgan traktorlar va o'rim-yig'im texnikasi fermer xo'jaliklariga, mashina-traktor parklariga hamda "O'zkimyosanoat" davlat-aksiyadorlik kompaniyasining qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi "Qishloq xo'jalik kimyo" hududiy aksiyadorlik birlashmalariga ya'ni lizing oluvchilarga texnika va texnologiyani berishda "O'zqishloqxo'jalikmashlizing" aksiyadorlik lizing kompaniyasining salmog'i yuqori pog'onalarni egallamoqda. Kompaniya moliyaviy barqaror fermer xo'jaliklariga joriy yildan boshlab quyidagi shartlar asosida lizing obyektlarini yetkazib beradi:

- zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikasi qiymatining 20 foizi avans sifatida lizing oluvchilar tomonidan o'z mablag'lari hisobiga to'lanadi;

- zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikasi qiymatining 80 foizi «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» kompaniyasi tomonidan unga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi qishloq xo'jaligini texnika bilan ta'minlashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi qarz asosida beradigan mablag'lar hisobiga moliyalashtiriladi.

Bugungi kunda "O'zqishloqxo'jalikmashlizing" aksiyadorlik kompaniyasi mamlakatimiz qishloq xo'jaligi taraqqiyotida, xususan, fermer xo'jaliklarini kerakli agregatlar bilan ta'minlashda e'tirofga loyiq ishlarni amalga oshirmoqda. "O'zqishloqxo'jalikmashlizing" aksiyadorlik lizing kompaniyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 30 oktyabr 486-sonli "O'zqishloqxo'jalikmashlizing" aksiyadorlik lizing

kompaniyasini tashkil etish to'g'risida"gi qarori va ta'sischi tomonidan 1999-yil 26-noyabrda imzolangan ta'sis shartnomasiga muvofiq tashkil etildi.

Kompaniya asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi va 12 ta hududiy viloyat filiallaridan tarkib topgan. Kompaniya tizimida jami 190 nafarga yaqin oliy toifali mutaxassislar mehnat qilib kelmoqda. Shulardan: 6 nafari fan nomzodlari, 7 nafari O'zbekiston Respublikasi huzuridagi Davlat va qurilish akademiyasini tugallagan mutaxassislar hisoblanadilar. «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» ALK kompaniyasi boshqaruv organlari bo'lib, quyidagilar xisoblanadi:

- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi;

- Kuzatuv kengashi;

- Jamiyat boshqaruvi hisoblanadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi jamiyatning yuqori boshqaruv organidir. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini jamiyat kuzatuv kengashining raisi, u uzrli sabablarga ko'ra bo'lmagan taqdirda esa, jamiyat kuzatuv kengashining a'zolaridan biri olib boradi.

Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida jamiyatning kuzatuv kengashini va taftish komissiyasini saylash to'g'risidagi, jamiyatning boshqaruv raisi, boshqaruv a'zolari, ishonchli boshqaruvchi bilan tuzilgan shartnomaning muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi haqidagi masalalar hal etiladi, shuningdek O'zbekiston Respublikasining " aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunining 59-moddasi birinchi qismini o'n ikkinchi va o'n uchinchi xatboshilariga muvofiq jamiyatning yillik hisoboti va boshqa hujjatlari ko'rib chiqiladi.

Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilishlardir.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi va tartibi,

yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallarning (axborotning) ro'yxati "O'zqishloqxo'jalikmashlizing" ALKning kuzatuv kengashi tomonidan quyidagilar belgilanadi:

- jamiyat ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;

- jamiyatni qayta tashkil etish;

- jamiyatni tugatish, tugatish komissiyasini tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

- jamiyat kuzatuv kengashining va minoritar aksiyadorlar qo'mitasining son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

- e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;

- o'z aksiyalarini olish;

- jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, uning boshqaruv raisini saylash va boshqaruv raisining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

- jamiyat taftish komissiyasining a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, shuningdek taftish komissiyasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovozga qo'yilgan masalalar bo'yicha quyidagilar ovoz berish huquqiga ega bo'ladi:

- jamiyatning oddiy aksiyalari egalari bo'lgan aksiyadorlar;

- qonunda va ushbu ustavda nazarda tutilgan hollarda jamiyatning imtiyozli aksiyalari egalari bo'lgan aksiyadorlar. Quyidagi masalalar bo'yicha qaror aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning to'rt dan uch qismidan iborat ko'pchilik (malakali ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi:

-jamiyat ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;

-jamiyatni qayta tashkil etish;

-jamiyatni tugatish, tugatuvchini tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

- e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;

-jamiyat kuzatuv kengashining va taftish komissiyasining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan jamiyat kuzatuv kengashining hisobotlarini va taftish komissiyasining xulosalarini eshitish;

-yirik bitim tuzish masalasi bo'yicha jamiyat kuzatuv kengashining yakdilligiga erishilmagan taqdirda, yirik bitim tuzish to'g'risidagi masalani kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra ko'rib chiqish;

- balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining ellik foizidan ortig'ini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilmagan masalalar bo'yicha qaror qabul qilishga, shuningdek kun tartibiga o'zgartishlar kiritishga haqli emas. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun jamiyatning kuzatuv kengashiga berilishi mumkin emas, amaldagi qonunchilikka muvofiq jamiyat ustaviga uning ustav fondini ko'paytirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masalalarni hal etish bundan mustasno.

"O'zqishloqxo'jalikmashlizing" aksiyadorlik lizing kompaniyasining kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, qonun va ushbu ustav bilan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra jamiyat kuzatuv kengashining a'zolariga

ular o'z vazifalarini bajarib turgan davr uchun haq to'lanishi va (yoki) kuzatuv kengashining a'zosi vazifalarini bajarish bilan bog'liq xarajatlarning o'zni qoplanishi mumkin. Bunday haq va to'lovlarning miqdorlari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorida belgilanadi.

Jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;
- aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish, bundan O'zbekiston Respublikasining "aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni 65-moddasining o'n birinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno;
- aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash;
- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;
- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun jamiyat aksiyadorlarining reestrini shakllantirish sanasini belgilash;
- jamiyat ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash masalasini aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun kiritish;
- mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;
- jamiyatning boshqaruv a'zolarini (raisdan tashqari) saylash (tayinlash), ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
- jamiyatning yillik biznes-rejasini ma'qullash, bunda, jamiyatning kelgusi yilga mo'ljallangan biznes-rejasi jamiyat kuzatuv kengashi majlisida joriy yilning 1-dekabridan kechiktirmay ma'qullanishi lozim;
- ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;
- jamiyat ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va jamiyat kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan

vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni ijroiya organidan olish. Jamiyat kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

- jamiyatning taftish komissiyasi a'zolariga to'lanadigan haq va kompensatsiyalarning miqdorlari yuzasidan tavsiyalar berish;

- dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

- jamiyatning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;

- jamiyatning filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;

- jamiyatning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;

- O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni 8- 9-boblarida nazarda tutilgan hollarda bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilish;

- jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish;

- jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

- jamiyatning ustav fondini ko'paytirish, shuningdek jamiyat ustaviga jamiyatning ustav fondini ko'paytirish bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;

- aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;

- jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

- qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

- jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

- ijroiya organ (boshqaruv)ga to'lanadigan haq va kompensatsiyalarning

miqdorlarini belgilash;

-jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga O‘zbekiston Respublikasining “ Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni va ushbu ustavga muvofiq boshqa masalalarni hal etish ham kiritilishi mumkin.

“O‘zqishloqxo`jalikmashlizing” ALKning kuzatuv kengashining majlisi kuzatuv kengashining raisi tomonidan uning o‘z tashabbusi bilan, kuzatuv kengashining a‘zosi, taftish komissiyasi yoki auditorning, jamiyat boshqaruvining, hamda jamiyatning eng kamida 10 (o‘n) foiz aksiyasiga ega bo‘lgan aksiyador(aksiyadorlar)ning talabiga binoan chaqiriladi. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisini chaqirish va o‘tkazish tartibi

“O‘zqishloqxo`jalikmashlizing” ALKning kuzatuv kengashi to‘g‘risida nizomda belgilab qo‘yiladi.

“O‘zqishloqxo`jalikmashlizing” ALKning kundalik faoliyatiga rahbarlik 5 kishidan iborat kollegial ijroiya organ – boshqaruv tomonidan amalga oshiriladi. Boshqaruv a‘zolari jamiyat boshqaruv raisi tomonidan tavsiya etilgan nomzodlarni ko‘rib chiqish asosida jamiyat kuzatuv kengashining oddiy ko‘pchilik ovoz bilan qabul qiladigan qaroriga muvofiq tayinlanadi.

“O‘zqishloqxo`jalikmashlizing” ALKning boshqaruvining vakolatlariga jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining yoki kuzatuv kengashining mutlaq vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

“O‘zqishloqxo`jalikmashlizing” ALKning boshqaruvi raisining vazifalari:

-Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalaydi, jamiyat nomidan bitimlar tuzadi, jamiyatning filiali va shuba korxonasi rahbarini tayinlaydi, shtatlarni tasdiqlaydi, jamiyatning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqaradi va ko‘rsatmalar beradi;

-Boshqaruv faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi, jamiyatga topshirilgan vazifalarning bajarilishiga shaxsan javob beradi, boshqaruv raisining o‘rinbosari, boshqaruv a‘zolari va ijroiya apparatning boshqa tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari o‘rtasida xizmat vazifalarini taqsimlaydi;

-Amaldagi qonunchilik va ushbu ustav me‘yorlariga muvofiq jamiyat vakolatiga kirgan masalalar bo‘yicha buyruqlar, yo‘riqnomalar va boshqa me‘yoriy hujjatlarni imzolaydi;

-Amaldagi qonunchilik va ushbu ustav me‘yorlariga muvofiq jamiyat mol- mulki va mablag‘larini tasarruf etadi. O‘zbekiston Respublikasi va undan tashqarida jamiyat nomidan ish yuritadi, yuridik va jismoniy (shu jumladan xorijiy) shaxslar bilan jamiyat nomidan shartnomalar va boshqa bitimlar tuzadi.

Jamiyatning taftish komissiyasi moliya-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish uchun ushbu ustavga muvofiq, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan aksiyadorlarning ko‘pchilik ovozi bilan aksiyadorlar ichidan, 1 yil muddatga 3 kishidan iborat taftish komissiyasi saylanadi.

Jamiyat taftish komissiyasining vakolatlari amaldagi qonunchilik va ushbu ustav me‘yorlariga muvofiq belgilanadi.

Qishloq xo‘jaligini yuqori samarali zamonaviy texnika vositalari bilan butlashni rag‘batlantirish, soha mashinasozlik zavodlari va qo‘shma korxonalarini yanada rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirish, qishloqqa yetkazib berilayotgan traktorlar va o‘rim-yig‘im texnikasi hajmlarini oshirish hamda ular uchun hisob-kitob qilish mexanizmini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 2-noyabrdagi "Qishloqni lizing shartlarida qishloq xo‘jaligi texnikasi bilan ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi P1 424-sonli qarorining qabul qilinishi ayni muddao bo‘ldi.

Darhaqiqat, mazkur hujjatga asosan vazirlik maqomidagi «O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing» kompaniyasi tashkil etildi, uning tuzilmasi tasdiqlandi, eng muhimi, 2014-2015-yillar mobaynida, tajriba tariqasida

"O'zqishloqmashxolding" kompaniyasi zavodlari va qo'shma korxonlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi mashinalarini (birinchi navbatda traktorlar va o'rim-yig'im texnikasini) mashina-traktor parklariga, qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlar)ga va fermer xo'jaliklariga 7 yil muddatga lizingga berishning tashkiliy, iqtisodiy hamda texnikaviy mexanizmlari aniq va ravshan belgilab qo'yildi.

Ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi texnikalarini foydalanuvchilar tomonidan lizing orqali xarid qilinishi o'z qulayligi va maqbulligini ko'rsatmoqda. Bu, hukumatimiz tomonidan lizing sohasida yaratilgan imtiyozlari natijasidir. Hukumatning 2000-yil 2 noyabrdagi "Qishloqni lizing shartlarida qishloq xo'jaligi texnikasi bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi qaroriga muvofiq fermer xo'jaliklari, mashina-traktor parklari hamda hududiy "Qishloqxo'jalikkimyo" aksiyadorlik jamiyatlari uchun "O'zqishloqxo'jalikmashlizing" kompaniyasi xizmatidan foydalanishda bir qator imtiyozli lizing shartlari belgilangan. Bu imtiyozlarga - lizing ob'ekti qiymatining 15 foizini oldindan to'lab berilishi, traktorlar va o'rim-yig'im texnikalarining fermer xo'jaliklariga va Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Xorazm viloyatidagi mashina-traktor parklariga 10 yil muddatga, boshqa viloyatlardagi mashina-traktor parklari va "Qishloqxo'jalikkimyo" aksiyadorlik jamiyatlariga 7 yil muddatga lizingga berilishi, lizing foizi yillik miqdorining Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 50 foizidan oshmasligi kerak.

Kompaniyaning asosiy mijozlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- fermer xo'jaliklari;
- mashina-traktor parklari;
- "Qishloqxo'jalikkimyo" kompaniyasining hududiy (viloyat va tuman) bo'linmalari;
- "Agrotexservis" korxonalari va boshqa qishloq xo'jalik korxonalaridan iboratdir.

Kompaniya tomonidan lizing operatsiyalari amalga oshirilishida quyidagi lizing shartlari qo'llaniladi:

1. Traktorlar va kombaynlar uchun:

-avans – texnika qiymatining 15 % miqdorida;

-lizing muddati – 10 yil;

-lizing daromadi foizi – Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 50 foizi miqdoridan oshmaydi.

2. Boshqa turdagi qishloq xo'jalik texnikalari uchun:

-avans – texnika qiymatining 20-40 % miqdorida;

-lizing muddati – 3 yilgacha;

-lizing daromadi foizi lizing shartnomasi shartlari asosida belgilanadi.

Kompaniya respublika qishloq xo'jaligi mashinasozligi tarmog'ining mahalliy va qo'shma korxonalarida ishlab chiqarilgan 38 turdagi qishloq xo'jalik texnikalarini qishloq xo'jaligiga lizing asosida yetkazib bermoqda.

Kompaniya o'z mijozlarining qishloq xo'jalik texnikalariga bo'lgan talablari va ehtiyojlarini moliyalashtirish masalasini qulay usullar bilan yechish maqsadida hamkorlikda ishlashga tayyor.

“O'zqishloqxo'jalikmashlizing” aksiyadorlik lizing kompaniyasi yuridik shaxs bo'lib, u o'z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan o'zining ustav fondiga berilgan mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

“O'zqishloqxo'jalikmashlizing” kompaniyasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligini texnika bilan ta'minlashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'i hisobidan lizingga beriladigan Texnikalar narxiga Vazirlar Mahkamasining

2012-yil 2 maydagi 126-sonli qaroriga asosan 8,14% chegirma qo'llanilishi belgilangan.

“O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” aksiyadorlik lizing kompaniyasi faoliyat sohasi (asosiy yo‘nalishlari) quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari, qonun osti hujjatlari va ushbu Ustavga asosan o‘ziga berilgan vakolat doirasida traktorlar, kombaynlar, qishloq xo‘jaligi texnikalari, avtotransport va mototransport vositalarini, texnologik uskuna va jihozlarni, chorvachilik texnikalarini, zootexnika va laboratoriya jihozlarini, mini-texnologiyalarni va boshqa mexanizatsiya vositalarini lizing, shu jumladan qaytariladigan lizing shartlari asosida tuzilgan shartnomalarga muvofiq lizing oluvchilarga yetkazib beradi. Bunda, amaldagi qonunchilikda o‘ziga berilgan vakolatlar doirasida lizing ob‘ektini lizingga berish shartlari va ko‘rsatilgan lizing xizmatlari uchun daromad foizi miqdori “O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” aksiyadorlik lizing kompaniyasi tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi;

-Moddiy yoki nomoddiy aktiv ko‘rinishidagi ko‘char va ko‘chmas mulkni sotib oladi, lizingga, shu jumladan qaytariladigan shakldagi lizingga beradi, ijaraga beradi, almashtiradi yoki mazkur mulk bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa har qanday huquq va manfaatlarni amalga oshiradi;

-Boshqa yuridik shaxslarning aksiyalarini sotib olish yoki ularning ustav fondiga ulush qo‘shish natijasida, mazkur yuridik shaxsning faoliyati natijasidan kelib tushadigan dividendlarni tasarruf etadi;

-Amaldagi qonunchilik va “O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” aksiyadorlik lizing kompaniyasi ustavda belgilangan vakolatlar doirasida yuridik va jismoniy shaxslar bilan mustaqil ravishda kontrakt (shartnoma) va bitimlar tuzadi, qonun hujjatlarida man etilmagan va ushbu ustavda ko‘rsatilmagan faoliyat turlari bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shug‘ullanadi, O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida o‘ziga majburiyatlar qabul qiladi;

-Lizing bozorida erkin ishtirok etadi, lizing oluvchilarning buyurtmasi

asosida hamda amaldagi qonunchilik me'yorlariga muvofiq lizing ob'ekti deb tan olinadigan har qanday mulkni lizingga beradi;

-Korporativ obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqaradi, o'ziga qabul qilgan har qanday majburiyatlarni ko'chmas mulk yoki majburiyatlarni ta'minlashning boshqacha usullari bilan ta'minlaydi;

-O'z filiallari, vakolatxonalari, shuba korxonalari faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan hollarda kafillik berish bo'yicha bitimlar tuzadi;

-O'z maqsadlariga erishish uchun qarz va kredit mablag'lari oladi va olingan mablag'larning qaytarilishini ta'minlash maqsadida ularni moddiy va nomoddiy aktivlar ko'rinishida ko'char va ko'chmas mulk sifatida sarmoya qilib kiritadi;

-O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi doirasida tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiradi;

-O'zbekiston Respublikasi va chet el fuqarolarini amaldagi qonunchilikda belgilangan tartiblarda ishga qabul qiladi, ularga oylik ish haqi miqdori va to'lov shaklini belgilaydi, rag'batlantirish va imtiyozlar berish tartiblarini ishlab chiqadi va qo'llaydi;

-Jamiyatning faoliyat muddati cheklanmagan.

“O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” aksiyadorlik lizing kompaniyasi oddiy aksiyalarni, shuningdek imtiyozli aksiyalarni joylashtirishga haqlidir. Joylashtirilgan imtiyozli aksiyalarning nominal qiymatdagi umumiy miqdori Jamiyat ustav fondining 20 foizidan oshmasligi lozim.

“O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” aksiyadorlik lizing kompaniyasi ustav fondi miqdori 50 000 000 600 (ellik milliard olti yuz) so‘m etib belgilanadi. Aksiyalarning nominal qiymati 2200 (ikki ming ikki yuz) so‘m etib belgilanadi. Jamiyat tomonidan chiqariladigan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xildir”.¹⁶

Lizing operatsiyalarda «O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing» kompaniyasi (lizing beruvchi), TTP viloyat hududiy birlashmalari, muqobil mashina-traktor

¹⁶ “O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” aksiyadorlik lizing kompaniyasi 2014-yilgi Nizomi, 24.05.2014 y.

parklari, qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlar), fermer xo'jaliklari (lizingga oluvchilar), qishloq xo'jaligi mashinasozligi zavodlari va qo'shma korxonalari (texnika vositalarini ishlab chiqaruvchilar) bilan bir qatorda Moliya vazirligi huzuridagi qishloq xo'jaligini texnika bilan ta'minlashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, "Agrobank" va "O'zagrosug'urta" kompaniyasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Mazkur sub'ektlarning har biriga lizing operatsiyalari mohiyatidan kelib chiqadigan quyidagi aniq vazifalar yuklatilgan:

- respublikada qishloq xo'jaligi texnikasi lizing siyosatini olib borish va uni takomillashtirish bo'yicha asoslangan takliflar ishlab chiqish;

- o'zining mintaqaviy filiallari orqali ijarachilar (mashina-traktor parklari hududiy birlashmasi, muqobil mashina-traktor parki, shirkat xo'jaligi, fermer xo'jaligi) bilan lizing shartnomalarini tuzish;

- Moliya vazirligi huzuridagi maxsus jamg'arma mablag'lariga bo'lgan o'z ehtiyojini aniqlash;

- jamg'arma bilan moliyaviy resurslar ajratish, «Agrobank» bilan moliya agenti vazifalarini, "O'zagrosug'urta" kompaniyasi bilan esa sug'urta agenti vazifalarini bajarish yuzasidan tegishli shartnomalarni tuzish;

- jamg'armaning kafolat xatlari asosida zarur texnika vositalarini ishlab chiqarish yuzasidan mashinasozlik korxonalariga buyurtmalar berish va ularni yetkazib berishga doir shartnomalarni tuzish;

- ijarachilar tomonidan shartnomalarga ilova qilingan lizing to'lovlari jadvallari asosida bunday to'lovlar o'z vaqtida bajarilishini nazorat qilish;

- «Agrobank» dagi operatsiya hisob raqamidan mashinasozlij korxonasiga navbatdagi chorak uchun joylashtirilgan buyurtma umumiy hajmining 30 %i miqdorida avans pulini to'lash;

- ijarachilarga texnikani sug'urta polisi mavjud bo'lgandagina berish;

- texnika vositasini ijarachi tomonidan olib ketilgani tasdiqlangandan keyin mashinasozlik korxonasiga qolgan 70 foiz mablag'ni o'tkazib, uzil-kesil

hisob- kitob qilish;

- ijarachilardan olingan summadan kompaniyaning xizmat haqlari undirib qolingandan keyin qolgan qismini uch kun muddatda jamg'armaning bankdagi hisob raqamiga o'tkazish;

- jamg'arma mablag'laridan maqsadli foydalanish, hisob-kitoblar tartibiga qat'iy rioya etish.

Moliya vazirligi huzuridagi maxsus jamg'armaga:

- ishlab chiqariladigan texnikaga haq to'lash uchun zarur bo'lgan resurslarni shakllantirish va ularning manbalarini aniqlash;

- lizing kompaniyasiga ajratilgan moliyaviy resurslar hajmi uchun kafolat xatlarini berish;

- mablag'ni lizing kompaniyasiga 7 yil muddatga ssuda sifatida taqdim etish;

- lizing kompaniyasining "Agrobank"dagi operatsiya hisob raqamiga zarur pul mablag'larini o'tkazish;

- mablag'larni jamg'armaga qaytarish muddatlari buzilgan taqdirda lizing kompaniyasiga jarima to'lovlari (penya) hisoblash;

- jamg'arma tomonidan lizing kompaniyasiga ajratilgan mablag'larning maqsadli ishlatilishi ustidan nazorat o'rnatish.

2.2.“O‘zqishloqxo`jalikmashlizing” Aksiyadorlik lizing

kompaniyasining moliyaviy tahlili

“O‘zqishloqxo`jalikmashlizing” Aksiyadorlik lizing kompaniyasi kompaniyasi respublikamizda yirik va samarali faoliyat ko'rsatayotgan lizing kompaniyalardan biri hisoblanadi. Kompaniya o'z faoliyatini boshlagandan buyon o'tgan davr mobaynida respublikamizdagi 32 mingdan ortiq qishloq xo'jaligi korxonalariga jami 1 trln. 223 mlrd. 400 mln. so'mdan ortiq qiymatdagi 51 ming donadan ortiq har xil turdagi qishloq xo'jaligi texnikalarini lizingga yetkazib berishni amalga oshirdi.

“O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” Aksiyadorlik lizing kompaniyasi kompaniyasining 2014-yil moliyaviy natijalariga ko‘ra lizing faoliyati natisada kompaniyaga kelib tushgan sof tushum 39 666 mln so‘mni tashkil etgan bo‘lib, 2013-yilga nisbatan qariyb 70 foizga o‘shgan. Bunga asosiy sabab kompaniya tomonidan lizing faoliyatiga doir o‘tkazilgan tadbirlar dasturi: lizingga berish shartlarini optimallashtirish, tashqi va ichki moliyaviy manbalar jalb qilish tizimini ishlab chiqish, kadrlar malakasini oshirish bo‘lgan. 2014-yilda lizing faoliyatidagi fermer va boshqa subyektlariga berilgan lizing obyektlari qiymati 4 466 mln so‘mni tashkil etgan bo‘lib, bu o‘tgan shu davrga nisbatan 2.5 baravarga ko‘paygan. Ushbu lizing obyektlari tarkibiga 710 dona «TTZ», 120 dona «TS- 135» va «TL-100» rusumli, 147 dona «Arion-630C» rusumli, 78 dona «LS» rusumli, 18 dona «T7060» rusumli, 11 dona «TT-40» rusumli traktorlar, 92 dona «Dominator-130» rusumli g‘alla o‘rish kombaynlari, 310 dona traktor tirkamalari va 1322 dona boshqa turdagi texnikalar (chigit ekish seyalkasi, kultivatorlar, o‘t o‘rish-maydalash agregatlari, purkagich, omochlar) kabi texnikalar kiradi.


Joriy yilda qishloq xo‘jaligi korxonalariga Janubiy Koreyaning «LS Mtron» kompaniyasida ishlab chiqarilgan LS 1004 va LS PLUS 100 rusumli yangi turdagi traktorlar, «O‘zKeysmash» qo‘shma korxonasida ishlab chiqarilgan TT-40 rusumli bog‘dorchilikda foydalaniladigan mini traktor va Belorussiyada ishlab chiqarilgan MTT-4U va PRT-4A rusumlimineral o‘g‘it tashuvchi va sepuvchi tirkamalar, «MC 90S Twin» makka o‘rish agregati kabi 6 ta turdagi yangi texnikalar lizingga etkazib berildi.

O‘zbekiston Respublikasida 2013-yil yakunlariga ko‘ra, lizing bitimlarning umumiy portfeli 1 trln. 511 mlrd. so‘mga etdi. 2014-yilda esa ushbu ko‘rsatgich 2 139 mlrd. so‘mni tashkil etib, 1.5 baravarga o‘shish surati kuzatilgan.¹⁷

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi lizing beruvchilar Assosiatsiyasi ma‘lumotlari “Xalq so‘zi” 2014 yil 18.01

2.1-rasm.

O'zbekiston Respublikasida 2010-2014-yillarda lizing bitimlarining umumiy portfeli (mlrd. so'm).




Manba: O'zbekiston Respublikasi lizing beruvchilar Assotsiatsiyasi ma'lumotlari

Lizing operatsiyalari xajmlari bo'yicha lizing bozorining yarim ulushi lizing kompaniyalariga tegishli aksiyadorlik lizing kompaniyasi lizing portfelini o'sish dinamikasi yildan-yilga o'sayotganini ko'rishimiz mumkin.

2.2-rasm.

2010-2014-yillarda "O'zqishloqxo'jalikmashlizing" Aksiyadorlik lizing portfelini o'sish dinamikasi.




Manba: "O'zqishloqxo'jalikmashlizing" Aksiyadorlik lizing ma'lumotlari

"O'zqishloqxo`jalikmashlizing" Aksiyadorlik lizing kompaniyasi lizing portfelini o'sish dinamikasi yildan-yilga o'sayotganini ko'rishimiz mumkin. 2010-yildagi ko'rsatkich 250.0 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2014-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 569,3 mlrd so'mni, 2 barvardan yuqori o'sishni tashkil etgan. Ushbu besh yillik davrdagi o'rtacha o'sish ko'rsatgichi tahlil qilnganda 20,8 foizni tashkil etgan. Yuqori o'shish suratlari erishish kompaniya faoliyatining 2013-2014-yillariga to'g'ri kelgan.

"O'zqishloqxo`jalikmashlizing" Aksiyadorlik lizing kompaniyasi tomonidan lizing asosida yetkazib berilgan qishloq xo'jalik texnikalari hajmini yildan-yilga oshirish kompaniyaning biznes rejasida belgilab qo'yilgan bo'lib, ularning amalga oshirish uchun kompaniya tomonidan bir qator ustuvor dastur va amallar ishlab chiqarilgan. Ushbu dasturlarning samarasi tufayli "O'zqishloqxo`jalikmashlizing" Aksiyadorlik lizing kompaniyasi 2014-yilda 267,6 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2010-yilga shu davrga nisbatan 2,68 barvarga o'sgan.

2.3-rasm.

2010-2014 yillarda "O'zqishloqxo`jalikmashlizing" Aksiyadorlik lizing kompaniyasi tomonidan lizing asosida yetkazib berilgan qishloq xo'jalik texnikalari hajmining o'sish dinamikasi (mlrd.so'm).




Manba: O'zbekiston Respublikasi lizing beruvchilar Assosiatsiyasi ma'lumoti.

Kompaniyaning lizing faoliyatidan erishilgan yalpi foydasi 35 200 mln so'm bo'lib, 2013-yilga nisbatan 142 foizga o'sgan.

Qiymat bo'yicha tahlil qilinganida, kompaniya tomonidan 2012-yilda 167,7 mlrd. so'mlik texnikalar yetkazib berilgan bo'lsa, 2013 yilda 271,0 mlrd so'm qiymatdagi texnikalarni lizingga yetkazib berilishi ta'minlandi. Agar kompaniya tomonidan amalga oshirilayotgan lizing xizmatlari hajmi bundan 5 yil oldingi ko'rsatkich (51,2 mlrd. so'm) bilan solishtirilsa, o'sish darajasining 5,3 barobarga teng ekanligini ko'rish mumkin.

2.4-rasm.

O'zbekiston Respublikasi bo'yich amalga oshirilgan lizing bitimlari miqdori (dona).



Manba: O'zbekiston Respublikasi lizing beruvchilar Assotsiatsiyasi ma'lumotlari asosida.

Respublikada lizing faoliyati bilan shug'ullanayotgan lizing kompaniyalari amalga oshirilgan lizing bitimlari miqdori 2014-yilda 4848ta bo'lib, o'tgan davrga nisbatan 38 foizga kamaydi. Bunda turli lizing kompaniyalari tomonidan tuzilgan bitimlar sonining qisqarishi asosiy sabablardan biri bo'ldi. Ko'rilayotgan davrda lizing operatsiyalari hajmi bo'yicha «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» Aksiyadorlik lizing kompaniyasi 271,5 mlrd. so'm, «O'zavtosanoatlizing» lizing kompaniyasi 65,9

mlrd.(so‘m),«O‘zmeliomashlizing» 38,5 mlrd. so‘m, «O‘zbek Lizing Interneshnl» A.O. 36,2 mlrd. so‘m va «Artum Lizing Grupp» 20,9 mlrd. so‘m lizing kompaniyalari ichida bozorning eng yirik ishtirokchilari bo‘ldi.

2.2.1-jadval.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan lizing kompaniyalaring 2013-yildagi natijalari bo‘yicha reytingi

№	Lizing kompaniyalar	Lizing operatsiyalar hajmi(mln. so‘m)
1	O‘zqishloqmashlizing	271 498,8
2	O'zavtosanoat Leasing	65 898,00
3	O'zmeliomash Leasing	38 542,50
4	Uzbek Leasing International	36 623,30
5	Artum Leasing Group	20 875,20

Manba: O‘zbekiston Respublikasi lizing beruvchilar Assosiatsiyasi ma’lumotlari asosida.

2013-yil natijalari bo‘yicha lizing operatsiyalar hajmi «O‘zqishloqxo`jalikmashlizing» Aksiyadorlik kompaniyasida 271,5 mlrd. so‘mni, «O‘zavtosanoatlizing» kompaniyasida 65,9 mlrd. so‘mni, «O‘zmeliomashlizing» kompaniyasida 38,5 mlrd. so‘mni tashkil etgan.

2.2.2-jadval.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan lizing kompaniyalaring 2014-yildagi natijalari bo‘yicha reytingi

№	Lizing kompaniyalar	Lizing operatsiyalar hajmi (mln.so‘m)
1	O‘zqishloqmashlizing	267 640,60
2	O'zavtosanoat Leasing	74 621,00
3	Uzbek Leasing International	63 960,40
4	O'zmeliomash Leasing	25 424,60
5	SIFCO International	16 009,00

Manba: O‘zbekiston Respublikasi lizing beruvchilar Assosiatsiyasi ma’lumotlari asosida.

2014-yil natijalari bo'yicha lizing operatsiyalar hajmi «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» Aksiyadorlik kompaniyasida 267,6 mlrd. so'mni, «O'zavtosanoatlizing» kompaniyasida 74,6 mlrd. so'mni, «O'zmeliomashlizing» kompaniyasida 25,4 mlrd.so'mni, «O'zbek Lizing Interneshnl» Aksiyodorlik kompaniyasida 36,9 mlrd. so'mni va « SIFCO International » kompaniyasida 16,01 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Yil yakunlari bo'yicha lizing bozorida, xususan fermer xo'jaliklari tomonidan lizingga olinayotgan texnikalarga bo'lgan talab ma'lum miqdorda pasayishi tufayli, "O'zqishloqxo'jalikmashlizing" Aksiyadorlik kompaniyasida 2014- yildagi lizing operatsiyalar hajmi 1.01 foizga kamaygan.

2.2.3-jadval.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari va lizing kompaniyalarining 2014-yilda tuzilgan lizing operatsiyalari hajmi bo'yicha reytingi²⁷

№	Kompaniyalar nomi	Lizing operatsiyalar hajmi (mln.so'mda)
1	O'zqishloqxo'jalikmashlizing	267 640,60
2	Agrobank	79 421,10
3	O'zavtosanoat Leasing	74 621,00
4	Uzbek Leasing International	63 960,40
5	Ipoteka Bank	26 702,00
6	O'zmeliomash Leasing	25 424,60
7	Xalq Bank	22 237,10
8	Hamkor Bank	16 409,30
9	SIFCO International	16 009,00
10	Qurilish Lizing	15 120,45


Manba: O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari va lizing kompaniyalari ma'lumotlari asosida.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari va lizing kompaniyalarining 2014-yilda tuzilgan lizing operatsiyalari hajmi o'yicha "O'zqishloqxo'jalikmashlizing" Aksiyadorlik kompaniyasi yuqori pog'onani egallagan bo'lsa, unda keyingi o'rinda bank sektorining o'rnini ko'rsak bo'ladi. Joriy yilda "Agrobank" tijorat banki 79 421mln so'mlik, "Ipoteka" Aksiyadorlik tijorat banki 26702mln so'mlik, xalq bank 22 237 mln.so'mlik lizing operatsiyalarini amalga oshirgan.

Lizing xizmatlari bozorini tahlil qilib, qayd etish mumkinki, fermer xo'jaliklari, sanoat, transport, qurilish sektori, shuningdek ko'chmas mulk sohasi korxonalari o'z faoliyatida tobora ko'proq lizingdan foydalanmoqda.

2.5-rasm.

O'zbekiston Respublikasida asosiy vositalar turlari bo'yicha lizing bitimlarining taqsimlanishi.



2014-yil yakunlariga ko'ra, lizingga berilgan mulk qiymati hajmi bo'yicha qishloq xo'jaligi texnikasi yetakchi bo'ldi. Lizingga topshirilgan qishloq xo'jaligi texnikasi hajmi 34,2 foizga teng bozor ulushii tashkil qildi. "O'zqishloqxo'jalikmashlizing" Kompaniyasining asosiy aksiyadorlari "Ipoteka bank" ATIB, "Agrobank" OAKB, mehnat va axolini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligi, "O'zagromashservis" uyushmassi, "O'zdonmaxsulot" DAK, "Toshkent traktor zavodi" OAJ, "Xalq banki" ATB va 364 ta yuridik va 275 jismoniy shaxslar bo'lib jami 649 ta hisoblanadi.«O'zqishloqxo'jalikmashlizing» aksiyadorlik lizing kompaniyasi qishloq xo'jaligi asosiy vositalarini modernizatsiyalashdagi o'rni «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» aksiyadorlik lizing kompaniyasi O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999-yil 30 oktyabrdagi 486-sonli qarori asosida tashkil etilgan bo'lib, o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 2-noyabrdagi 424-sonli qarori bilan tasdiqlangan "TARTIB" asosida yuritadi.

Kompaniyaning asosiy vazifasi qishloq xo'jalik maxsulotlari ishlab chiqaruvchilar va ularga hizmat ko'rsatuvchi korxonalarga qishloq xo'jalik texnikalarini lizingga yetkazib berishdan iborat.

Respublikaning barcha viloyat markazlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida Kompaniyaning 13 ta hududiy filiallari va 1 ta shuba korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda.

2.3."O'zqishloqxo'jalikmashlizing"ALK kompaniyasining qishloq xo'jaligi asosiy vositalarini modernizatsiyalashdagi o'rni

«O'zqishloqxo'jalikmashlizing» aksiyadorlik lizing kompaniyasi lizing munosabatlarini rivojlantirish va uni keng yo'lga quyish uchun xo'jalik subyektlarining to'lov qobiliyatini kuchaytirish, qayta moliyalash, stavkalarini pasaytirish kabi muammolarni qo'yadi. Asosiy vazifa esa lizing infrastrukturasini rivojlantirishdadir. Lizing kompaniyalari O'zbekiston hududining turli burchaklarida tashkil etilishi zarurdir. Lizing kompaniyalarining faoliyat yuritishi uchun qulay iqtisodiy muhit yaratish, birinchi navbatda lizing faoliyatini soliqqa tortish, ikki marotaba soliqqa tortishning oldini olish, qo'shilgan qiymat solig'ini bekor qilish, xorijdan olib kelinadigan uskunalar, lizing asosida keltirilsa, boj to'lovlaridan ozod etish muammolari o'tish davrining asosiy muammolari edi.

Umuman olganda, lizing tarmog'ini rivojlanishi iqtisodiy rivojlanishga bir necha yo'nalishlar bo'yicha ta'sir ko'rsatadi:

Ø lizing kichik biznesning kelgusidagi rivojlanishiga ta'sir etadi. Chunki, qandaydir sabablarga ko'ra boshqa moliyalashtirish manbalariga ega bo'lmagan kichik korxonalarga o'z ishlab chiqarishlarini tashkil etish va

modernizatsiya qilish imkoniyatini yaratib beradi;

Ø lizing uzoq muddatli moliyalashtirishning qo'shimcha turi bo'lib, u kapital qo'yilmalar hajmini oshiradi;


Ø lizing moliyaviy xizmat ko'rsatish bozorida qo'shimcha raqobatni vujudga keltiradi.

Mamlakatimizda kuzatilayotgan iqtisodiy o'sishlar qishloq xo'jaligi va boshqa sohalardagi ijobiy o'zgarishlar

natijasida «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» ALK ning o'rni va solmog'iga murojat qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 16-apreldagi «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» ALK kapitallashuv darajasini yanada oshirish chora tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq kompaniyaning ustav fondi miqdori 10,9 mlrd. so'mdan 50 mlrd. yetkazishi belgilangandi. 2015-yil 1 yanvar holatiga kompaniyaning ustav kapitali 51,9 mlrd. so'mga yetdi va 2014-yil boshiga nisbatan 1,9 mlrd. so'mga ko'paydi.

2.6-rasm.

«O'zqishloqxo'jalikmashlizing» ALK kompaniya tomonidan 2010-2015 yillarda yetkazib berilgan texnikalar sonining o'zgarish dinamikasi (dona)



Manba: «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» ALK kompaniya ma'lumotlari asosida.

Kompaniya tomonidan 2010-2014-yillarda yetkazib berilgan texnikalar sonining o'zgarish dinamikasida 2014-yilda 4415 ta texnika lizingga yetkazib berilgan, bu o'tgan yilga nisbatan 795 taga kam. «O'zqishloqxo'jalikmashlizing»ALK tomonidan soniga emas, sifatiga alohida yetibor berilgan.

2.2.4-jadval

2015- yilda «O'zqishloqxo'jalikmashlizing»ALK kompaniya tomonidan lizingga yetkazib berilgan qishloq xo'jaligi texnikasi to'g'risida solishtirma tahlil


№	Viloyatlar	Jami texnikalar				2014-yilga nisbatan oʻsish surʼati% hisobida	
		2014-yil		2015-yil			
		soni dona	soni dona	soni dona	summasi mln soʻm	soni dona	summasi, mln soʻm
1	Qoraqalpogʻiston Respublikasi	234	1982,3	213	13043,8	91	108,9
2	Andijon	225	17714,3	239	12438,6	106	70,2
3	Buxoro	499	13423,1	347	19555,5	69,5	145,7
4	Jizzax	382	28368,7	337	23219,4	88,2	81,8
5	Qashqadaryo	452	24020,6	354	22562,3	78,3	93,9
6	Navoiy	217	13169,1	212	10327,4	97,7	78,4
7	Namangan	256	17582,5	253	16271,8	98,8	92,5
8	Samarqand	406	16743,5	466	21881,9	115	130,7
9	Surxandaryo	645	26980,2	674	24176,8	105	89,6
10	Sirdaryo	491	23678,2	330	26502,9	67,2	111,9
11	Toshkent	624	30299,6	428	30958,4	68,6	102,2
12	Fargʻona	403	24349,8	358	24984,6	88,8	102,6
13	Xorazm	376	19046,2	204	21717,2	54,3	114
	Jami	5210	267358	4415	267641	84,7	101,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

Jadvaldan shuni xulosa qilish mumkinki, kompaniya tomonidan lizingga, 2014-yilda 5210 ta qishloq xo'jalik texnikani summasi 267358 (mln. so'm) ga teng texnikani Qoraqalpog'iston Respublikasi va o'n ikkita viloyatga lizing asosida yetkazib berilgan. Viloyatlar bo'yicha oladigan bo'lsak, Surxandaryo viloyati 645 ta qishloq xo'jalik texnika, summasi 26980,2 (mln. so'm) da bilan yetakchi o'rinda bo'lgan bo'lsa, 2014-yilda viloyatlar bo'yicha eng past ko'rsatkich Navoiy viloyatiga to'g'ri kelgan 217 ta, summasi 13169,1 (mln. so'm).ga teng. 2015-yilda 4415 dona summasi 267641(mln. so'm)ga teng qishloq xo'jalik texnikasini, aholi turmush darajasini yaxshilash, mehnat unimini oshirish, mehnat qiyinchiligini kamaytirish va qishloq xo'jaligining moddiy texnik bazasini yaxshilash maqsadida lizing asosida yetkazib berilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan texnikalar son jihatdan 795 taga kam, lizingga texnika yetkazib berilgan. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kompaniya tomonidan songa emas sifatga yetibor berilayotgani, hamda O'zbekiston lizing bozorida lizing hizmatlarining kengayishi natijasida bir xil vazifani emas balki, qishloq xo'jaligida bir necha xil vazifalarni bajaradigan texnikalarni lizingga yetkazib berishi ahamiyatli. Natijada, qishloq xo'jaligida ayrim texnikalarga bo'lgan talab pasayib, 2015-yilda texnikalar soni jihatidan kamaygan.

«O'zqishloqxo'jalikmashlizing»ALK kompaniyaning aktivlarini ko'rib o'tadigan bo'lsak, yildan-yilga o'sish tendensiyasida ketayotganini bilamiz. Birgina misol 2010-yilda 286,7 mlrd. so'm bo'lan bo'lsa, 2015-yilda bu ko'rsatgich 727,4 mlrd. so'mga teng bo'lgan bo'lsa, 5 yil maboynida 440,7 mlrd.so'mga o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Birgina o'tgan yili misolida oladigan bo'lsak, 578,2 mlrd so'm ga teng bo'lgan, bu yesa lizing kompaniyaning aktivlari 1 yil ichida 149,2 mlrd. so'mga oshanligini ko'rsatadi. Bundan xulosa kilishimiz mumkinki, 2010-yildan hozirgi kunga kadar «O'zqishloqxo'jalikmashlizing»ALK kompaniyaning aktivlari o'sib qishloq xo'jaligini rivojlantirishda ijobiy natijalarga erishmoqda.

O'zqishloqxo`jalikmashlizing" ALK kompaniya aktivlarining 2010-2015 yillarda o'zgarishi, mlrd. so'mda diagramma



Manba: Statistika qo`mitasi ma'lumotlari asosida.

Lizing xizmatlari ko'rsatishdan olinadigan tushumlar 2013-yilda 27,7 mlrd.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2014-yilda bu ko'rsatgich 40,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Sof foyda o'tgan 2013-yilda 4,2 mlrd.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, hisobot davrida 10,4 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yiliga nisbatan 6,2 mlrd.so'mga ko'p bo'ldi. Keltirilayotgan raqamlar kompaniya moliyaviy ko'rsatkichlarining yuqori tezlik bilan o'sganligidan dalolatdir.

Lizing xizmatlari ko'rsatishdan olinadigan tushumlar 2013-yilda 27,7 mlrd.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2014-yilda bu ko'rsatgich 40,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Sof foyda o'tgan 2013-yilda 4,2 mlrd.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, hisobot davrida 10,4 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yiliga nisbatan 6,2 mlrd.so'mga ko'p bo'ldi. Keltirilayotgan raqamlar kompaniya moliyaviy ko'rsatkichlarining yuqori tezlik bilan o'sganligidan dalolatdir.

II bob bo'yicha xulosa

Dissertatsiya tadqiqotining ikkinchi bobini bajarish jarayonida amalga oshirilgan tahlillarning natijalariga tayangan holda, quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirdik:

- O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini lizing asosida moliyalashtirish bugungi kunda lizing kompaniyalari va tijorat banklari tomonidan amalga oshirilmoqda. Tahlil natijalariga qaraydigan bo'lsak O'zbekistonda lizing bozori kenayib lizing hizmatlari ortib qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlar rivojlandi lekin, kezi kelganda aytish kerakki, lizing amaliyoti va uning turli jihatlari hali O'zbekistonda to'la shakllanib rivojlanib ulgurgani yo'q.

- Lizing kompaniyalari tomonidan berilayotgan kreditlarning asosiy qismini ularning o'z mablag'lari hisobidan berilayotganligi tijorat banklari tomonidan lizing kompaniyalarini kreditlash amaliyotining takomillashmaganligi bilan izohlanadi va lizing kompaniyalarining kichik biznes subektlari faoliyati va qishloq xo'jaligini lizing asosida moliyalash imkoniyatini oshirishga to'sqinlik qilmoqda.

- Aholi turmush darajasi yaxshilanib, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlari yaxshi rivojlanmoqda.

Respublikamizda paxta va don ekinlariga davlat

buyurtmasi o'rnatilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 31 dekabrda PF-2165-sonli farmoniga muvofiq fermer xo'jaliklari davlat buyurtmasi hajmidagi yetishtirayotgan mahsulot qiymatining 50 foizi miqdorida Moliya Vazirligining "Davlat ehtiyojlari uchun xarid etiladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan hisob-kitob qilish jamg'armasi" mablag'lari hisobidan avans puli olish imkoniyatiga ega. Buning ijobiy tomoni shundaki, fermer xo'jaliklari mahsulot yetishtirish uchun zarur bo'lgan aylanma mablag'larni yuqori foiz stavkalarida tijorat banklaridan qarzga olishga majbur bo'lmaydi.

-Qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotganlar qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari ta'sirida doimiy ravishda moliyaviy mablag'larga ehtiyoj sezadilar. Chunki, ekinlarni ekish va parvarishlash davri uzoq davom etib, hosilni yig'ib olgunga qadar pul tushumi bo'lmaydi. Tadqiqotning ikkinchi bobida amalga oshirilgan tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, Respublikamiz lizing kompaniyalari va tijorat banklarining ma'lum qismida lizing kreditlari foizlarining yuqoriligi lizing kreditlari xajmining oshishiga to'sqinlik qilmoqda.

- Respublikamiz tijorat banklari va lizing kompaniyalari deposit bazasining yetarli emasligi, mintaqalarda qishloq xo'jaligini lizing asosida moliyalashning rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Lizing xizmatlari keyingi paytlarda o'zining yetarlicha rivojlanish tendensiyalariga erishib kelmoqda.

Lizing so'nggi paytlardagi rivojlanish sur'atlari butun kredit va sug'urta xizmatlarining rivojlanish suratlaridan yuqoriroqdir. 2014-yilda lizing xizmatlarining YaIM dagi hissassi 0,6 % ni tashkil qildi. Aksariyat tijorat banklarining lizing instrumentini iqtisodiyot ehtiyojlarini moliyalashtirishda foydalanishi o'ziga xos holatdir.

III-BOB.QISHLOQ XO'JALIGINI LIZING ASOSIDA TEXNIKA BILAN TA'MINLASHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO`LLARI

3.1.Lizing jarayonlarini rivojlantirish va lizingdan foydalanishning holati.

Bugungi kunda lizing faoliyati sohasi O'zbekistonda iqtisodiyotning jadal rivojlanayotgan sohalaridan biri hisoblanadi. Lizing ishlab chiqaruvchi bilan iste'molchi o'rtasidagi o'ziga xos ko'prik bo'lib, bunda ishlab chiqaruvchi o'z ishlab chiqargan mahsulotini lizing orqali tezda sotish, iste'molchi korxona esa, lizing yordamida kam mablag' sarflash orqali yangi texnika olish va o'z mashina-traktor parkini jadal yangilash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Lizing o'z mohiyatiga ko'ra investitsion faoliyat turi bo'lib, bunda lizing beruvchi tashkilot o'z mablag'i (yoki kreditga olingan mablag') hisobidan sotib olingan yangi texnika yoki uskunani ishlab chiqarishda foydalanish uchun boshqa korxonaga uzoq muddatga haq evaziga moliyaviy ijaraga beradi.

Qonunga muvofiq lizing obyekti lizing oluvchi balansida hisobga olinadi. Davlat organlarida ro'yxatdan o'tkazilishi talab etiladigan lizing obyektlari (Traktorlar va kombaynlar – "Boshdavtexnazorat" inpeksiyasida, avtotransport vositalari – "Davlat yo'l harakati xavfsizligi" qonun hujjatlarida belgilangan tartibda lizing beruvchining yoki lizing oluvchining nomiga rasmiylashtiriladi.

Lizing beruvchi lizing shartnomasi bo'yicha quyidagi huquqlarga ega:
Agar, Lizing oluvchi lizing to'lovlari lizing shartnomasida belgilangan miqdor va muddatlarda to'lamasa:

- to'lov kechiktirilgan (yoki to'lanmagan) davr uchun hosil bo'lgan qarzdorlik summasiga penya hisoblash;

- "Agrobank"ning hududiy bo'linmasi orqali Lizing oluvchining bankdagi hisob-kitob raqamiga akseptsiz (so'zsiz) undiriladigan to'lov talabnomasini qo'yish;

- "Texnikadan foydalanishni vaqtinchalik taqiqlash dalolatnomasi"ni tuzib, texnikadan foydalanishni qarzlarni to'languniga qadar bo'lgan muddatga

taqiqlash;

- Kafillik shartnomasi asosida kafildan lizing to'lovlari bo'yicha hosil bo'lgan qarzni va penyani undirish;

- Shartnomani bir tomonlama bekor qilish va texnikani lizing oluvchidan qaytarib olish.

- Texnika yo'qotilsa, foydalanishga yapoqsiz holatga keltirilsa, lizing oluvchidan to'lanmagan barcha lizing to'lovlarini muddatidan oldin to'lashini talab etish.

Lizing oluvchining huquqlari quyidagilardan iborat:

- Lizing beruvchidan shartnoma shartlarini lozim darajada bajarilishini talab qilish;

- Texnika shartnomada kelishilgan muddatda yetkazib berilmagan, to'liq yetkazib berilmagan, yetkazib berish muddati o'tkazib yuborilgan bo'lsa, yetkazib beriladigan texnikadan voz kechish va lizing shartnomasining bekor qilinishini talab etish.

- Lizing beruvchi va sotuvchi o'rtasida tuzilgan oldi-sotdi shartnomasidan kelib chiquvchi talablarni, jumladan texnikaning sifati, butligi, kafolatli ta'mirlanishi va yetkazib berish muddati xususida sotuvchiga talablar qo'yish.

- Lizing muddati mobaynida texnikadan foydalanish va unga egalik qilish.

- Shartnomada belgilangan lizing to'lovlari to'liq to'langanidan so'ng, texnikani mulk sifatida qabul qilib olish.

Lizing beruvchining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- Texnikani sotib olish va uni lizing oluvchiga shartnomada belgilangan muddatlarda topshirish.

- Texnikani lizingga berilishi to'g'risida sotuvchiga ma'lum qilish.

- Texnikaning sifati va butligi, kafolatli ta'mirlanishi xususida ishlab chiqaruvchiga, topshirish muddati xususida sotuvchiga talablar qo'yishda lizing oluvchiga yordam berish.


Lizing oluvchining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- Lizing obyektini, ishlab chiqaruvchini va sotuvchini tanlash.

- Texnika uchun berilgan yagona nomer belgisini lizing beruvchidan qabul qilib olish, texnikaga o'rnatish va "Davtexnazorat" inspeksiyasining tuman (shahar) bo'limida ro'yxatga qo'yish.
- Texnikani 10 kunlik muddat ichida viloyat texnik markazida ro'yxatga qo'yish.
- Lizing to'lovlarini shartnomada belgilangan muddat va miqdorlarda to'lab berish.
- Texnikadan texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilgan holda, uning texnik pasportida ko'rsatilgan o'z vazifasi va texnik imkoniyatlari darajasida texnik shartlarga muvofiq foydalanish;
- Texnikani haydovchilik guvohnomasi yo'q shaxslarga boshqarishga bermaslik.
- Texnikaga uning texnik pasportida ko'rsatilgan muddatlarda texnik xizmatlar ko'rsatish va bir yilda bir marta texnik ko'rikdan o'tkazish.
- Texnikaning konstruksiyasiga o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar kiritmaslik.
- Texnikani sotmaslik, garovga qo'ymaslik, uchinchi shaxslarga bermaslik, qarovsiz qoldirmaslik, nosoz holda foydalanmaslik va unga nisbatan boshqa noqonuniy harakatlarni amalga oshirmaslik.
- Lizing oluvchining o'z majburiyatini bajarmaganligi (yoki lozim darajada bajarmaganligi) natijasida ushbu shartnoma bekor qilingan taqdirda, texnikani o'rnatilgan tartibda lizing beruvchiga qaytarish.

O'zbekistonda lizing faoliyatini rivojlantirish uchun berilgan soliq imtiyozlari

Quyidagilar soliq va bojxona to'lovidan ozod etilgan:



**Shuningdek, lizing oluvchining soliq undiriladigan daromad bazasi
lizing foizlari summasiga kamaytiriladi.**

Respublikamizda yaratilgan ana shunday qulay muhit natijasida lizing faoliyati yildan-yilga to'xtovsiz rivoj topib bormoqda.

O'zbekiston lizing beruvchilar uyushmasidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, respublikamizda keyingi 7 yil ichida lizing operatsiyalari hajmi 90,6 mlrd so'mdan 484,5 mlrd so'mgacha oshib, 5,3 barobarga o'sgan, 2016-yilda esa lizing operatsiyalari hajmining 500,0 mlrd so'mdan oshishi kutilmoqda.

Qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash sohasida lizing xizmatlari ko'rsatish bo'yicha «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi texnikalarini foydalanuvchilar tomonidan lizing orqali xarid qilinishi o'z qulayligi va maqbulligini ko'rsatmoqda. Bu, hukumatimiz tomonidan lizing sohasida yaratilgan imtiyozlar natijasidir.

Hukumatning 2015-yil 2 noyabrdagi «Qishloqni lizing shartlarida qishloq xo'jaligi texnikasi bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq fermer xo'jaliklari, mashina-traktor parklari hamda hududiy «Qishloqxo'jalikkimyo» aksiyadorlik jamiyatlari uchun «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» kompaniyasi xizmatidan foydalanishda bir qator imtiyozli lizing shartlari belgilangan. Bu imtiyozlarga - lizing obyekti qiymatining 15 foizini oldindan to'lab berilishi, traktorlar va o'rim-yig'im texnikalarining fermer xo'jaliklariga va Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda

Xorazm viloyatidagi mashina-traktor parklariga 10 yil muddatga, boshqa viloyatlardagi mashina-traktor parklari va “Qishloqxo’jalikimyo” aksiyadorlik jamiyatlariga 7 yil muddatga lizingga berilishi, lizing foizi yillik miqdorining Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 50 foizidan oshmasligi kiradi.

Kompaniyaning asosiy mijozlari quyidagilardan iborat:

- fermer xo’jaliklari;
- mashina-traktor parklari;
- “Qishloqxo’jalikimyo” kompaniyasining hududiy (viloyat va tuman) bo’linmalari;
- “Agrotexservis” korxonalari va boshqa qishloq xo’jalik korxonalaridan iboratdir.

Kompaniya tomonidan lizing operatsiyalari amalga oshirilishida quyidagi lizing shartlari qo’llaniladi.

Traktorlar va kombaynlar uchun:

- avans - texnika qiymatining 15 % miqdorida;
- lizing muddati – 10 yil;
- lizing daromadi foizi – Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 50 foizi miqdoridan oshmaydi.

Boshqa turdagi qishloq xo’jalik texnikalari uchun:

- avans - texnika qiymatining 20-40 % miqdorida;
- lizing muddati – 3 yilgacha;
- lizing daromadi foizi lizing shartnomasi shartlari asosida belgilanadi.

Kompaniya o’z faoliyatini boshlagan 2015-yildan boshlab o’tgan davr mobaynida respublikamizdagi 29 mingdan ortiq qishloq xo’jaligi korxonalariga jami 590 mlrd. so’mlik qiymatdagi 42 ming 890 donadan ortiq har xil turdagi qishloq xo’jaligi texnikalarini lizingga yetkazib berishni amalga oshirdi.

Lizingga yetkazib berilgan texnikalar qiymati bo’yicha tahlil qilinganida 2014-yilda Kompaniya tomonidan 133,2 mlrd. so’mlik qiymatdagi texnikalar lizingga yetkazib berilgan bo’lib, bu 2012-yildagi (48,9 mlrd. so’m)ga nisbatan 2,7 barobarni tashkil etadi. 2015-yilda 167,7 mlrd so’m qiymatdagi yoki 2014

yildagiga nisbatan 26,0 foizga ko'p qiymatdagi texnikalar lizingga yetkazib berildi.

Respublika qishloq xo'jaligi korxonalariga lizingga yetkazib berilayotgan qishloq xo'jalik texnikalari turlari ham yildan-yilga ko'payib bormoqda. Jumladan, 2012-yilda 18 turdagi texnikalar lizingga yetkazib berilgan bo'lsa, 2014-yilda 30 xil turga, 2015-yilda esa 38 turga yetkazildi. Shuni to'la ishonch bilan aytish mumkinki, respublikamiz qishloq xo'jaligida keyingi yillarda ham lizing faoliyatini katta odimlar bilan rivojlanishi uchun hamma asoslar bor va imkoniyatlar yaratilgan.

3.2.Lizing asosida texnikadan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari

Iqtisodiyot qonunlaridan ma'lumki, lizingni amalga oshirilishi bo'yicha amalda qilingan xarajatlarni hisobga olmasdan turib uni samaradorligini aniqlab bo'lmaydi. Lizing jarayonining amalga oshirilishida lizing beruvchining (Lb) umumiy xarajatlarini quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$Lb = L_{ox} + K_t + S_x + B_x + N_x \quad (1)$$

Bunda:

L_{ox} -lizing obyektni sotib olish xarajati, so'm;

K_t -lizing obyektni sotib olish uchun jalb etilgan kredit to'lovini qaytarish xarajatlari, so'm;

S_x -soliq to'lovini to'lash xarajatlari, so'm;

B_x -bojxona to'lovlari va yig'implarii to'lash xarajatlari, so'm;

N_x -lizing beruvchining boshqa xarajatlari, so'm;

Lizing jarayonini amalga oshirilishida lizing oluvchining (L_o) umumiy xarajatlarini quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$L_o = A_a + L_b \cdot d + K_x + B_t + S_t - QQS \quad (2)$$

Bunda:

A_a - joriy yilda lizing obyekti uchun ajratiladigan va lizing beruvchiga to'lanadigan amortizasiya ajratmalari, so'm;

Lb. d – lizing beruvchining daromad (lizing marjasi) foizi summasini to'lash xarajatlari, so'm;

Kx – lizing beruvchining lizing obyektni sotib olish va lizinga yetkazib berishda amalga oshirgan qo'shimcha xarajatlarini qoplash summasi, so'm;

Bt – bojxona bojini to'lash xarajatlari, so'm;

S t – lizing obyektni sug'urtalash xarajatlari, so'm;

QQS – lizing to'lovi uchun qo'shimcha qiymat solig'i, so'm;

Samarqand viloyati Urgut tumanidagi «Asil bobo» fermer xo'jaligining lizingga olingan «TTZ-80,11» rusumli chopiq traktori uchun amalga oshirgan xarajatlari va lizing obyektdan foydalanish natijasida olgan daromadini quyidagi tahlil asosida ko'rib chiqamiz:

Urgut tumanidagi «Asil bobo» fermer xo'jaligi tomonidan «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» ALK Samarqand viloyati filialidan 44550263 so'mlik «TTZ-80,11» rusumli chopiq traktorini 10 yillik muddatga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 424-sonli «Qishloqni lizing shartlarida qishloq xo'jaligi texnikasi bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarori bilan belgilangan tartibda lizingga oladi.

Lizing shartnomasiga ko'ra lizing to'lovlari hisoblanish usuliga ko'ra-bo'nakli, kiritilishining davriyligi bo'yicha-davriy, ya'ni to'lov har 6 oyda bir marta to'lanilishining miqdoriga ko'ra-kamayib boradigan miqdorlar bilan amalga oshiriladi. Shartnoma bo'yicha lizing summasi 56479,252 ming so'mga teng bo'lib shartnoma shartiga ko'ra texnika narxining 15 foizi, ya'ni 6682,539 ming so'mlik qismi lizing oluvchi tomonidan avans sifatida lizing beruvchiga to'lab berilgan. Texnika narxining 85 foizi, ya'ni 37867,724 ming so'mlik qiymati lizing kompaniyasi tomonidan moliyalashtirilgan.

Lizing oluvchi tomonidan 10 yil mobaynida to'lanishi lozim bo'lgan lizing to'lovlarining umumiy summasi 49796,713 ming so'mni tashkil etadi. Lizing beruvchining daromad (marja) foizi miqdorini ko'rsatuvchi lizing stavkasi (Ls)-yillik 6%. Lizing obyekti lizing oluvchi tomonidan «O'zagrosug'urta» sug'urta kompaniyasining Samarqand viloyati Urgut tumani

bo'linmasida 10 yillik lizing muddatiga sug'urtalangan bo'lib, sug'urta mukofotini (St) to'lash xarajati 445500 so'm to'lab berilgan. Lizing obykti «O'zqishloqxo`jalikmashlizing» kompaniyasi tomonidan respublika ichida, ya'ni Toshkent traktor zavodidan xarid qilinganligi munosabati bilan bojxona bojini to'lash xarajatlari nolga teng. «O'zqishloqxo`jalikmashlizing» kompaniyasi tomonidan lizing obyektiga davlat raqam belgisini olish, birinchi texnik ko'rikdan o'tkazish va texnik pasport olish xarajatlari uchun 100283,4 so'm qo'shimcha xarajat (Qx) qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 28 avgustdagi qabul qilingan «Lizing faoliyatini rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi» gi Farmoniga muvofiq, 2002-yilning 1 sentyabridan boshlab lizing to'lovlari – qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinganligi munosabati bilan QQS harajatlari xam nolga teng bo'ldi. Bu vaziyatda lizing oluvchining lizing bo'yicha xarajatlari quyidagiga teng bo'ladi:

$$Lo = Aa + Lb \cdot d + K \cdot x + S \cdot t \quad (3)$$

Joriy yilda lizing obykti uchun ajratiladigan va lizing beruvchiga to'lanadigan amortizatsiya ajratmalari (Aa) quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$Aa = (Tk \times 0,85/Lm) \times 12 \quad (4)$$

$$Aa = (44550,263 \times 0,85/120) \times 12 = 37867724 \text{ so'm}$$

Bunda:

Tk – lizing obykti (traktor) ning qiymati, so'm;

0,85- lizing obyektining 85 foizlik qiymati, so'm;

Lm – lizing muddati shartnomaga asosan 120 oy (ya'ni 10 yil) ga teng.

Lizing beruvchining daromad (lizing marjasi) foizi summasi (Lb. d) ni lizing shartnomasida belgilanganiga muvofiq quyidagi formulaga asosan oyma-oy hisoblanishi talab etiladi va bu miqdor lizingni birinchi oyi uchun:

$$Lb. d \text{ 1 oy} = (Tk \times 0,85) \times Ls / 12 \text{ oy} \quad (5)$$

Bunda: Ls – lizing beruvchining yillik daromad (marja) foizi miqdorini ko'rsatuvchi lizing stavkasi, shartnomaga asosan yillik 7 foizga teng.

3.2.1- jadval

Samarqand viloyati Urgut tumani «Asil bobo» fermer xo'jaligi bo'yicha lizing to'lovlarini hisobi va to'lov grafigi (ming so'm).

№	Texnikaning qoldiq qiymati	Lizing to'lovi to'lashning oxirgi sanasi	Texnikaning har 6 oylik lizing davriga to'g'ri keladigan qiymati qismi	har 6 oylik davr uchun hisoblangan lizing foizi summasi miqdori	har 6 oyda to'lanadigan lizing to'lovi miqdori
1	37867,724	30.06.2013	1876,796	1126,694	3003,490
2	35990,928	31.12.2013	1907,903	1088,602	2996,505
3	34083,025	30.06.2014	1876,796	1014,087	2890,882
4	32206,229	31.12.2014	1907,903	974,128	2882,031
5	30298,326	30.06.2015	1876,796	901,479	2778,275
6	28421,531	31.12.2015	1907,903	859,654	2767,557
7	26513,628	30.06.2016	1876,796	791,062	2678,227
8	24626,463	31.12.2016	1907,903	742,831	2650,734
9	22718,560	30.06.2017	1876,796	675,955	2552,751
10	20841,765	31.12.2017	1907,903	630,392	2538,295
11	18933,862	30.06.2018	1876,796	563,347	2440,143
12	17057,066	31.12.2018	1907,903	515,918	2423,821
13	15149,163	30.06.2019	1876,796	450,740	2327,535
14	13272,368	31.12.2019	1907,903	401,444	2309,346
15	11364,465	30.06.2020	1876,796	339,071	2226,236
16	9477,300	31.11.2020	1907,903	285,873	2193,775
17	7569,397	30.06.2021	1876,796	225,215	2102,011
18	5692,602	31.12.2021	1907,903	172,182	2080,085
19	3784,699	30.06.2022	1876,796	112,608	1989,403
20	1907,903	31.12.2022	1907,903	57,708	1965,611
	x	Jami:	37867,724	11928,989	49796,713

Manba "O'zqishloqxo'jalik mashlizing" ALK Samarqand viloyati filiali ma'lumotlari

Lizing marjasi har olti oyda ushbu shartnomaning ajralmas qismi bo'lib hisoblangan jadvalda ko'rsatilgan to'lov grafigi asosida traktorning amaldagi qoldiq qiymatining to'liq miqdoriga hisoblanadi. Birinchi to'lov texnika olingan

vaqtdan boshlab, qaysi sana oldin keshiga qarab, 1 iyul yoki 1 yanvargacha hisoblanadi.

Lizing shartnomasiga ilova qilingan va yuqorida bayon qilingan formula asosida xisob-kitob qilingan lizing to'lovlari grafigiga muvofiq «Asil bobo» fermer xo'jaligi 10 yil uchun 11928,989 ming so'mlik lizing daromadi (marjasi) foizi summasini amalga oshirgan. Lizing faoliyatini fermer xo'jaligi uchun qanday samara keltirganligini aniqlash maqsadida «Asil bobo» fermer xo'jaligining lizing obyekti hisoblangan «TTZ-80.11» rusumli traktordan bir yil uchun qancha miqdorda iqtisodiy samaradorlikka erishilganligini hisoblab topamiz.

3.2.2-jadval

2015-yilda yetishtirilgan paxta va g'alla xom-ashyosini sotishdan olinadigan daromad

Mahsulot nomi	Kontraktasiya shartnomalari			O'rtacha xarid narxi, 1 t mahsulot uchun ming so'm	Yetkazib beriladigan mahsulotning umumiy qiymati, ming so'm
	Yer maydoni, ga	Hosildorligi, s/ga	Yetkazib beriladigan mahsulot xajmi, tonna		
g'alla	19,2	31,0	59,5	338,0	20111,0
Paxta	34,1	29,0	98,9	696,8	68909,6
Jami:	53,3	x	158,4	x	89020,6

Manba: "O'zqishloqxo'jalikmashlizing" ALK Samarqand viloyati filiali ma'lumotlari

Fermer xo'jaligi 2015-yilda 19,2 gektar maydonning xar gektaridan 31,0 sentnerdan, jami 59,5 tonna g'alla, 34,1 gektar maydonning xar gektaridan 29,0 sentnerdan, jami 98,9 tonna paxta xom ashyosi yetishtirib davlatga sotish rejalashtirilgan. Yuqoridagilarga asosan fermer xo'jaligi 2015 yil va kelgusi yillarda kontraktasiya shartnomalariga muvofiq paxta va g'alla xom-ashyosini sotishidan yalpi daromad 89020,6 ming so'mni tashkil qiladi.

3.2.3-jadval

Lizingga olinadigan “TTZ-80,11” rusumli traktori uchun avans va lizing to'lovlari

To'lovlar nomi	Miqdori, ming so'm	To'lov manbasi
Avans to'lovi	6682,5	O'z mablag'i hisobidan
2013 yili lizing to'lovi	6000,0	2012 yil daromadidan
2014 yili lizing to'lovi	5772,9	2013 yil daromadidan
2015 yili lizing to'lovi	5545,8	2014 yil daromadidan
2016 yili lizing to'lovi	5329,0	2015 yil daromadidan
2017 yili lizing to'lovi	5091,0	2016 yil daromadidan
2018 yili lizing to'lovi	4864,0	2017 yil daromadidan
2019 yili lizing to'lovi	4636,9	2018 yil daromadidan
2020 yili lizing to'lovi	4420,0	2019 yil daromadidan
2021 yili lizing to'lovi	4182,0	2020 yil daromadidan
2022 yili lizing to'lovi	3955,0	2021 yil daromadidan
Sug'urta polisi uchun to'lov	445,5	O'z mablag'i hisobidan

Manba "O'zqishloqmashlizing" ALK Samarqand viloyati filiali ma'lumotlari

Lizingga olingan “TTZ-80,11” rusumli traktori uchun lizing to'lovlarining bir qismi xizmat ko'rsatuvchi tijorat banki tomonidan paxta va g'alla yetishtirish uchun ajratiladigan imtiyozli kredit mablag'lari hisobidan, ikkinchi qismi topshirilgan paxta va g'alla hosilini 80% va yakuniy hisob kitoblaridan, xamda boshqa daromadlardan fermer xo'jaligi to'lab beriladi. Xo'jalik taqdim etgan “Biznes-Rejasi” loyihasi bo'yicha TTZ-80.11 Rusumli traktorni lizingga olish uchun 6682,5 ming so'm avans mablag'ini o'z mablag'idan to'lab berishni rejalashtirgan. 2013 yil uchun to'lanishi lozim bo'lgan lizing to'lovining 3191,5 ming so'mini paxta va g'alla etishtirish uchun mexanizasiya xizmatlariga ajratiladigan imtiyozli kredit mablag'larining 60 % lik hisob kitobidan to'lab berishni rejalashtirgan. Qolgan 2808,5 ming so'mini paxta va g'alla xom ashyosi topshirilgandan so'ng 90 % lik va yakuniy hisob kitoblardan to'lab berishni

rejalashtirgan. Lizing muddatining keying yillarida ham ushbu mexanizm asosida to'lab berishni rejalashtirgan.

3.2.4-jadval

Lizingga olinadigan "TTZ-80,11" rusumli traktori uchun lizing to'lovlarini qaytarilish hisob-kitobi va uning manbalari

t/r	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	2013 yil	Kelgusidagi 2014-2022 yillar uchun
1	Jami mahsulot sotishdan olinadigan daromad	Ming so'm	89020,6	89020,6
2	Jami mexanizasiya xizmatlari uchun ajratiladigan kredit mablag'i (60%) Shu jumladan			
2.1.	Paxta uchun (37,6 ming so'm tonna hisobiga)	Ming so'm	2231,2	2231,2
2.2.	G'alla uchun (26,9 ming so'm tonna hisobiga)	Ming so'm	960,3	960,3
3	Mexanizasiya xizmatlarini xarajatlaridan lizing to'loviga ajratiladigan mablag'	Ming so'm	3191,5	3191,5
4	Jami paxta va g'alla xom-ashyosi topshirilganidan so'ng yakuniy hisob kitobidan to'lab beriladigan lizing to'lovi, shu jumladan:	Ming so'm	2808,5	2581,4
4.1.	80% hisob kitobdan	Ming so'm	2127,7	2127,8
4.2.	Yakuniy hisob kitobdan		680,8	453,6
5	Boshqa daromadlardan	Ming so'm	0	0
5.1.	Go'st va sut mahsulotlarini etishtirish		0	0
5.2.	Meva sabzavot etishtirish		0	0
6	Farqi "+,-"	Ming so'm	0	0

Manba "O'zqishloq xo'jalik mashlizing" ALK Samarqand viloyati filiali ma'lumotlari

Quyidagi jadvalda 10 yillik lizing munosabati mobaynida foydalanish natijasida fermer xo'jaligi tomonidan olingan jami sof daromadning tahlili keltirilgan.

3.2.5-jadval

Lizingga olingan TTZ- 80.10 rusumli traktordan 10 yillik lizing muddati mobaynida foydalanish natijasida fermer xo'jaligi tomonidan olingan jami sof daromad.

№	Ko'rsatkichlar nomi	Lizing
1	Traktor narxi, ming so'm	44550,263
2	Lizing muddati, yil	10
3	Shartnoma buyicha avans to'lovi foizi. %	15
4	Shartnoma buyicha avans to'lovi summasi, ming so'm	6682,539
5	Traktor narxining lizing kompaniyasi tomonidan moliyalashtirilgan qismi, ming so'm	37867,724
6	Yillik lizing marjasi foizi, %	6
7	Shartnoma bo'yicha jami lizing summasi, ming so'm	56479,252
8	Lizing muddati mobaynida topilgan jami daromad, ming so'm	1004468,0
9	Yillik agrotexnik tadbirlar xarajati, ming so'm	664385
10	Sug'urta mukofotini to'lash xarajati, ming so'm	445,5
11	Davlat raqami belgisi, texnik pasport olish va texnik ko'rikdan o'tkazish xarajati, ming so'm	100,2834
12	10 yillik lizing to'lovini to'lash xarajati, ming so'm	49796,713
13	Lizingdan foydalanish evaziga olingan sof daromad, ming so'm	283057,9646

Manba "O'zqishloq xo'jalik mashlizing" ALK Samarqand viloyati filiali ma'lumotlari

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, lizingga olingan TTZ- 80.10 rusumli traktordan 10 yillik lizing muddati mobaynida foydalanish natijasida fermer xo'jaligi tomonidan olingan jami daromad 1004468,0 ming so'm, yillik

agrotexnik tadbirlar xarajati 664385 ming so'mni tashkil etib, lizingdan foydalanish evaziga olingan sof daromad 283057,9646 ming so'mni yoki samaradorlik darajasi 39,2 % ni tashkil etgan.

3.3.Fermer xo'jaliklarini qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlashda lizing va kredit resurslaridan foydalanishning afzalliklari.

Lizing bitimlarini amalga oshirish jarayonidagi huquqiy munosabatlar, shu jumladan investitsiyalash va tovar bilan kreditlash munosabatlari, oldi-sotti huquqiy munosabatlari, ijaraga oid huquqiy munosabatlar va mulkiy kafolat munosabatlari lizing bitimlarining asosiy qatnashchilari o'rtasida shakllanadi. Ular to'g'risidagi ushbu huquqiy munosabatlar majmuasi qarz olish va investitsiyalash, tovar bilan kreditlash va ijaraga oid munosabatlar, lizing mulkini xarid qilish shartlari, lizing bitimlarini sug'urtalash va soliqqa tortish, lizing to'lovlarini to'lash munosabati bilan yuzaga keladi. Ham kredit, ham lizing munosabatlarining asosini investitsiyalash uchun resurslarni qarzga olish tashkil etadi. Shu bilan birga kredit munosabatlari bilan lizing munosabatlari o'rtasida muayyan aloqalar ham, muayyan tafovutlar ham mavjud .

3.3.1 –jadval.

Kreditor nuqtai nazaridan kredit va lizing munosabatlarining eng muhim tafovutlari

Ko'rsatkichlar	Munosabat turlari	
	Kredit	Lizing
Obyektga mulkchilik huquqi	Mulkchilik huquqi qarz oluvchiga beriladi. Egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqi qarz oluvchiga tegishlidir.	Obyektni mulk qilib olish opsiioni mulk huquqini topshirish emas. Egalik qilish va foydalanish huquqi mulkchilik huquqidan ajratiladi.
Sotuvchi bilan munosabatlar da xaridor hisoblanadi	Barcha holatlarda qarz oluvchi yoki uning vakili	Lizing oluvchi agar sotuvchini o'zi tanlasa, u xaridorga tenglashtiriladi. Aks holda mulkni keyinchalik ijaraga topshirish maqsadini ko'zlaydigan lizing beruvchi xaridor hisoblanadi.
Kreditning ta'minoti	Mol-mulkni garovga qo'yish, bank kafolati, ipoteka, kafillik.	Asosan lizing obyeksi
Lizing obyektiga chiqimlar tasnifi	Kredit hisobidan investisiyalash	Lizing to'lovlari: kredit uchun haq, amortizasiya ajratmalari, vositachilik haqi, qo'shimcha xizmatlar uchun xaq, QQS, sug'urta to'lovlari.
Kreditni berish va uzish shakli	Valyuta- pul	To'lash - tovar shaklida, uzish - valyuta-pul, kompensasiya va aralash shakllarda
Savdo va kredit bitishuvining	Kredit bitishuvi shartlari oldi-sotdi dalolatnomasida ko'rsatiladi.	Hamisha mulkni xarid qilishdan boshlanmaydi va hamisha sotish bilan nihoyatlanmaydi.
Kreditni uzish manbalari	qarz oluvchining foydasi hisobidan	Ishlab chiqariladigan mahsulot tannarxiga ko'shiladigan amortizasiya va boshqa ajratmalar hisobidan.
QQS	Solinmaydi	Solinadi
Kredit munosabati qatnashchilari	Kredit beruvchi va qarz oluvchi	Lizing beruvchi, lizing oluvchi va lizing obyektini ishlab chiqaruvchi

Manba: Fozibekov D.F. va bosh. Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan va texnologiya, 2004.

Oddiy bank krediti kabi lizing krediti ham muayyan maqsad uchun aniq muddatlarga qaytarib berish va haq to'lash sharti bilan beriladi. Kredit munosabatlari kabi lizing munosabatlari ham shu munosabat qatnashchilaridan har birining manfaatlari mos kelganida va tegishli manfaatlar ko'rish umidida tarkib topadi. Bank krediti kabi lizing kreditini ham o'z vaqtida qaytarib berish va undan foydalanganlik uchun haq to'lash kerak. Bank krediti bo'yicha ham, lizing krediti bo'yicha ham qarz oluvchilarning qarzning asosiy summasini qaytarish va qarz yuzasidan haq to'lash imkoniyatlari aniqlanadi. Bank kreditiga ham, lizing kreditiga ham qarz olinishi asos bo'ladi. Bank kreditini berishda ham, lizing kreditini berishda ham u yoki bu loyihani investitsiyalash qanchalik maqsadga muvofiq ekanligi haqida puxta ishlangan qaror qabul qilinadi. Bank kreditini olishda ham, lizing kreditini olishda ham qarz oluvchi o'z zimmasiga qarzning asosiy summasini va foizlarini o'z vaqtida to'lash majburiyatini oladi.

Mulkchilik huquqining egalik qilish va foydalanish huquqidan ajratilishi bank kreditining lizing kreditidan eng asosiy farqidir. Uzoq muddatli bank krediti berilganida kreditdan foydalanganlik uchun foizlar to'lash soliq to'langanidan keyin foyda hisobidan amalga oshirilsa, lizing berilganida bu to'lovlar boshqa to'lovlar bilan birga mahsulot tannarxiga kiritiladi, bu esa foyda solig'i bo'yicha tegishli soliqqa tortish bazasini kamaytiradi.

Agar bank krediti moliyalashtirishning qo'shimcha manbai tarzida namoyon bo'lsa, lizing krediti qoida tariqasida bitimni 100 foiz moliyalashtirishni ta'minlaydi. Agar lizing mol-mulki lizing beruvchinint balansida aks etsa, bu narsa lizing oluvchining rentabellik, qarz va o'z mablag'lari koeffisiyenti kabi muhim balans ko'rsatkichlarini yaxshilab, qo'shimcha mablag' jalb etish uchun imkoniyat yaratadi. Lizing mol-mulki lizing oluvchining balansida (balansdan tashqari hisob raqamida) hisobga olingan taqdirda, lizing oluvchining balans ko'rsatkichlari kredit hisobiga sotib olishga nisbatan afzalroq bo'lib chiqadi, chunki qarz mablag'i bilan o'z mablag'i o'rtasidagi nisbat yaxshi tomonga o'zgaradi. Ko'pgina mamlakatlarda lizing munosabatlaridan foydalanish tufayli tadbirkorlar bank krediti hisobidan texnika sotib olgandan ko'ra 20-30 foiz kamroq mablag' sarflaydilar. Yuqorida

ko'rsatilganlaridan tashqari yana bir qancha tafovutlar ham bor. Ammo lizing kreditdan foydalanganlik uchun foiz stavkasiga va soliq qonunchiligiga nisbatan juda sezgir bo'ladi. Lizing qarz mablag'larini kelgusida ham jalb etish uchun asos yaratadi.

Lizing oluvchi oldidagi asbob-texnikalarning sifati, butligi, yetkazib berish muddatlari va boshqa xizmatlar uchun lizing beruvchi emas, balki mahsulot ishlab chiqaruvchi javob beradi. Lizing oluvchi uchun lizing soliq to'lovlari hajmini kamaytirish imkonini beradi.

3.3.2-jadval.

Lizing munosabatlari bilan yollash munosabatlarining eng muhim tafovutlari

Baholash ko'rsatkichlari	Munosabat turlari	
	Yollash	Lizing
Ishlab chiqarish vositalariga munosabat	Foydalanish	Foydalanish, egalik qilish, qisman tasarruf etish
Yollash obyektga	Xodim	Mol-mulk
Resurslar uchun javobgarlik	Ma'naviy va qisman moddiy	To'liq mulkiy
Asosiy fe'l-atvor motivlari va stimullari	Avvalo fiziologik ehtiyojlarni qondirish	Shaxsiy imkoniyatni yuzaga chiqarish, sosial va intellektual ehtiyojlarni qondirish
Ishlab chiqarilgan mahsulot va daromadga bo'lgan huquq	Mahsulot va daromad korxona egasining mulkidir	Lizing oluvchi foydalanuvchiga tegishlidir
Tovar ishlab chiqaruvchining holati	Yollanma xodim	Tadbirkor-mulkdor
Bajaradigan funk-siyalari	Ijrochilik	Ijrochilik, boshqaruvchilik, ya'ni ijodiy vazifalar
Boshqaruv usullari	Asosan ma'muriy boshqaruv	Qarzni o'zi boshqarish va boshqaruvning iqtisodiy usullari
Huquqiy tartibga solish	Mehnat munosabati	Moliyaviy, mulkiy, kredit, ijara, tijorat huquq munosabatlari, mulkchilik munosabatlari
Mehnatga haq to'lash darajasi	Mehnat shartnomasiga binoan	Lizing oluvchining qoldiq daromadi bilan belgilanadi
Menejerlar bilan munosabatlar	Tabaqaviy (iyerarxiya-viy)	Shartnomaga binoan, sherikchilik
Tashkiliy shakl	Yollanma mehnat	Mustaqil tadbirkorlik faoliyati

Manba: Fozibekov D.F. va bosh. *Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti*. – T.: Fan va texnologiya, 2004.

Lizing haqida qaror qabul qilganda avvalo, lizing loyihasiga alohida e'tibor berish, lizing obyektini yetkazib berish va qabul qilish shartlari, uni ishlatish, texnikaviy xizmat va boshqa shartlarni sinchiklab asoslash lozim. Aniq loyihaga investisiya sarflashning muqobil usullarini taqqoslashda lizing mol-mulkini xarid qilish yoki qaytarish sharoitlarini, soliq solinishini (ko'riladigan manfaat yoki zararni) sug'urta, to'lov usullarini, tovar bilan kreditlash shartlarini va umuman lizingning moliyaviy vazifalarini har tomonlama asoslash kerak bo'ladi. Lizing foydasiga investisiya qarorlari qabul qilishda risklar xavfini baholash katta ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi Qonuni 18 va 19-moddalariga binoan lizing objekti bilan bog'liq barcha risklar lizing oluvchi zimmasiga yuklatiladi, bu esa lizing oluvchi faoliyatini og'irlashtiradi. Masalan, lizing obyektini sug'urtalash uchun javobgarlik lizing shartnomasida ko'rsatilmagan bo'lsa, buning uchun lizing oluvchi javobgar bo'ladi. Lizing objekti bilan bog'liq bo'lgan barcha risklar, shu jumladan, uning tasodifan yo'qolishi yoki nobud bo'lishi, yoki o'g'irlanishi, barvaqt eskirishi, shikastlanish risklari lizing shartnomasida nazarda tutilgan tartibda lizing oluvchiga o'tadi. Risklar lizing oluvchiga o'tgan paytdan e'tiboran lizing oluvchi lizing objekti harkanday yo'qotilishi yoki shikastlanishi uchun lizing shartnomasi amal qiladigan muddat davomida javobgar bo'ladi.

Qonunda ko'zda tutilishi bo'yicha, agar risklar lizing beruvchidan lizing oluvchiga o'tadigan vaqt lizing shart-nomasida belgilangan bo'lmasa, risklar lizing oluvchiga u lizing obyektini olgan paytdan e'tiboran o'tadi. Sotuvchining nochorligi yoki lizing obyektining undan foydalanish maqsadlariga nomuvofiqligi risklari lizing oluvchining zimmasida bo'ladi, lizing beruvchining sotuvchini yoki lizing obyektini tanlash yohud lizing beruvchi lizing oluvchini muayyan sotuvchini yoki lizing obyektini tanlashga g'ayri qonuniy tarzda majburlash holari bundan mustasnodir.

U yoki bu loyihalarni amalga oshirish yuzasidan qarorlar qabul qilish jarayonida lizing obyektini tadbirkorning o'zi vujudga kelayotgan ishlab chiqarish ehtiyojlari va mavjud imkoniyatlar holatiga qarab tanlaydi. Har bir aniq loyiha barcha shart-

sharoit va cheklashlarni hisobga olib alohida ko'rib chiqilishi kerak, chunki lizing investisiyalarni moliyalashtirish usullaridan biri ekanligi sababli, eng manfaatli bo'lgan taqdirdagina undan foydalanish lozim.

Shunday qilib, tadqiqotlarning ko'rsatishicha, lizing munosabatlarining kredit munosabatlaridan afzalligi shundan iboratki, traktor narxi, muddati, shartnoma bo'yicha jami summa, lizing (kredit) muddati mobaynida to'lanadigan foiz summasidadir. Lizing uchun 10 yil mobaynida to'lanadigan foiz summasi 11928989 so'm, kredit uchun 3 yil mobaynida 11962840 so'mni tashkil etadi.

3.3.3.-jadval

Texnikani lizingga olishda yoki kredit hisobidan sotib olishda lizing mexanizmining kreditga nisbatan afzalligi (TTZ-80.11 rusumli traktor misolida)

T/R	Ko'rsatkichlar nomi	lizing	Kredit
1	Traktor narxi, so'm	44550263	48498000
2	Lizing (kredit) muddati, yil	10	3
3	Shartnoma bo'yicha avans to'lovi foizi, %	15	-
4	Shartnoma boyicha avans to'lovi summasi, so'm	6682539	-
5	Traktor narxini moliyalashtiriladigan qismi, so'm		
	-lizing kompaniyasi tomonidan	37867724	-
	-tijorat banki tomonidan	-	48498000
6	Yillik lizing (kredit) foizi, %	6	16
7	Shartnoma bo'yicha jami summa		
	-lizing uchun-10 yilga, so'm	56479252	-
	-kredit uchun-3 yilga, so'm	-	60460840
8	Lizing (kredit) muddati mobaynida to'lanadigan foiz summasi:		
	-lizing uchun-10 yil mobaynida, so'm	11928989	-
	-kredit uchun-3 yil mobaynida, so'm	-	11962840

Manba "O'zqishloqxo'jalikmashlizing" ALK Samarqand viloyati filiali ma'lumotlari

III bob bo'yicha xulosa

Lizing munosabatlarini yanada rivojlantirish yo'lida tadbirkorlar uchun qo'lay bo'lgan lizing xizmatlarini yaratish hamda ularga shu yo'l orqali yangi zamon talablariga javob beradigan texnika va texnologiyalarni yetkazib berish lozim.

1. Hozirgi vaqtda xalqaro lizing operatsiyalarida “to'g'ridan-to'g'ri xalqaro lizing”, “tranzit (bilvosita) lizing”, “qayta yangilanadigan lizing”, “sublizing”, “dabl din” va “savdoga kumak” (sales-aid) kabi lizing turlari keng qo'llanilmoqda.

2. Mamlakatimizda ishlab chiqarish mehnat resurslarini asosiy qismi qishloq xo'jalik sektoriga to'g'ri kelishi munosabati bilan lizingni katta qismi qishloq xo'jalik texnikasi va qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash uskunalariga to'g'ri kelmoqda.

3. Bugungi kunda jahon amaliyotida tobora keng tarkalib borayotgan “savdoga kumak” (sales-aid) lizing operatsiyalarini mamlakatimiz lizing tizimiga keng joriy qilish lozim. Buning uchun O'zbekistan Respublikasi “Lizing to'g'risida”gi qonunning 13-moddasi, ikkinchi qismini uchinchi qism deb belgilash va “Sotuvchi lizing beruvchi bilan alohida tuzilgan shartnoma asosida lizing taqdim etishi mumkin” degan jumlaning ikkinchi qism sifatida qo'shish lozim. Fikrimizcha, yuqoridagi keltirilgan chora- tadbirlarni amalga oshirish mamlakatimizda xalqaro lizing operatsiyalarini yangi bosqichga olib chiqadi. Milliy iqtisodiyot taraqqiyotiga mos bo'lgan boy xorij tajribasidan o'z o'rnida foydalanish mamlakatimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

4. Umuman olganda, hozirgi kunda lizing bozorlarini rivojlanishi, xalqaro andozalarga mos ravishda tovar va xizmatlar taklifini ko'paytirish uchun lizing mexanizmini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Bunda Yevropa davlatlari va Osiyo mamlakatlariga ham rivojlantirish va har bir mamlakat lizing bozorlarida o'ziga xos muhit paydo bo'lishi lozim.

Xulosa

Bugungi kunda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning bir shakli sifatida mamlakatimizda lizingdan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib, lizing mexanizmi qishloq xo'jaligini moliyalashtirish asosiy o'rin egallaydi. Lizing bunda moliyaviy investitsiyalarni real investitsiyalarga aylantirishda, moliyaviy va ishlab chiqarish kapitalining xarakatlanishida asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi.

Lizingning zamonaviy mazmun-mohiyatini to'laroq ochib berishga harakat qilgan holda uning quyidagi mazmunga ega ta'rifi ishlab chiqildi: lizing mulkiy-moliyaviy mazmun kasb etib, ijara, kredit va investitsiya munosabatlari o'zida mujassam etuvchi tadbirkorlikni amalga oshirish va rivojlantirish uslubi va uni tashkil etish shaklidir. Lizing munosabatlari esa o'zining iqtisodiy mazmuniga ko'ra, qarz berish va karz olish asosida ijara munosabatlari alohida shaklini hamda o'zaro bog'liq iqtisodiy-huquqiy munosabatlarni aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini rivojlantirishda lizingning zarurligi va afzalliklari tadqiqotlar asosida o'rganildi va nazariy-amaliy jihatdan tahlil etildi. O'zgaruvchan o'tish iqtisodiyoti sharoitida lizing bitimlarining iqtisodiy samaradorligini baholash: qayta moliyalash, soliq hamda bank krediti foiz stavkalarining, ishlab chiqarish resurslari narxining o'zgarishini e'tiborga olishni taqozo etadi.

Lizing bitimlari bo'yicha tomonlarning mumkin bo'lgan xatarlarining to'liq ro'yxatini keltirish, soliqqa tortish bazasidan haqiqiy amortizatsiya summasini chiqarib tashlash masalalarini qonun bilan hal qilish lozim. Lizingning rivoji qishloq xo'jaligi tarmog'ida muhim ahamiyat kasb etishini hamda qishloq xo'jalik vakillarining ham asosiy qismi mazkur sohasida faoliyat yuritishini inobatga olib, bu tarmoqda lizing munosabatlari rivojlantirish maqsadida davlat ishtiroki bilan lizing shartnomasi shartlarida lizing shartnomasining muddati tugamagunicha lizing to'lovlari miqdorini

qaytadan ko'rib chiqishga yo'l qo'ymaslik va qishloq xo'jaligi texnikalari ta'miri bo'yicha yanada kengroq imtiyozlarni qonuniy mustahkamlash zarur.

Lizing kompaniyalarining qishloq xo'jaligiga taqdim etiladigan lizing obyekti bo'yicha foiz va boshqa barcha turdagi komission to'lovlarning pasaytirilishi o'rtasidagi tafovutni davlat tomonidan subsidiyalashni yo'lga qo'yish;

Investitsiyalar bir iqtisodiyot subektlari kapitallarini boshqasiga bog'lab ko'yish bo'lib, bunga o'ziga xos risklari, huquqiy sharoitlarining, investitsiya muhitining o'zgarishi xos bo'lib, natijada mamlakatlar va mintaqalar bo'ylab kapital ko'chishi yuz beradi. Shulardan kelib chiqqan holda, xo'jalik aloqalari baynalminallashuvi muhitida lizing yangi ko'rinishlarga ega bo'lmoqda va undan foydalanish hajmi hamda tarmoqlari ko'payib bormoqda. Bu esa o'z-o'zidan chet el investitsiyalarini samaradorligini oshirmoqda, mamlakatlar o'rtasida kapital ko'chishida asosiy omil bo'lib hisoblanmoqda. Lizing munosabatlarida mamlakatda faoliyat yurituvchi milliy lizing kompaniyalarini ishtirok etishi tashqi iqtisodiy aloqalarni o'rnatishda va mustahkamlashda asosiy mezon hisoblanadi va investitsiyalarni yo'naltirishda yangi imtiyozlar va imkoniyat doiralari kengayadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida lizingning huquqiy asoslari shakllanayotganligini ishonch bilan aytish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi lizing shartnomasining mazmuni, lizing subektlari va ularning huquq va majburiyatlarini, shuningdek lizing muomalalarida ishtirok etayotgan subyektlarning javobgarligini, lizing obektlarini, sublizing, ya'ni ijarachining lizingga olingan obyektni lizing shartnomasi asosida boshqa ijarachi - lizing oluvchiga berishini belgilab beradi.

Lizing operatsiyalarini amalga oshirish, albatta asosiy bog'lovchi hujjat bo'lib, lizing shartnomalarini tuzish orqali amalga oshiriladi. Lizing to'g'risidagi Konvensiyaga asosan lizing shartnomasini batafsil ko'rib chiqishdan oldin shuni ta'kidlash joizki, lizing bitimida ular o'rtasida lizing shartnomasi tuziladigan lizing beruvchi va lizing oluvchidan tashqari, lizing

beruvchi lizing obektini xarid qilish to'g'risida oldi- sotdi shartnomasini tuzadigan sotuvchi ham ishtirok etadi.

Yuqorida qayd qilingan ma'lumotlarni hisobga olgan holda mamlakatimizda ham tashqi, ham ichki lizing xizmatlari bozorini rivojlantirishda yetarlicha ishlar olib borilgan bo'lsada, hozirda ham bir qancha muammo va kamchiliklar mavjud. Ushbu muammolar va kamchiliklarni yechimi sifatida quyidagi takliflarni berish maqsadga muvofiq.

1. Lizing beruvchi tomonidan lizing shartnomasi ma'lum sabablarga ko'ra bekor qilinsa, lizing subyektini lizingga qayta berish mumkin emas, shunga asosan lizing oluvchi to'lovga qobiliyatsiz bo'lganda, lizing qarzdorligi tomonlarning kelishuvi bilan boshqa shaxsga o'tishi riskni kamaytirish oldini oladi. Bunda «ikkilamchi lizing»ni shakllantirish va tadbqiq etish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

2. Ma'lumki, lizing to'xtovsiz rivojlanayotgan soha. Shuning uchun rivojlangan davlatlardagi lizing qonunchiligi masalalarini yanada chuqurroq o'rganish hamda ijobiy omillarni respublikamiz lizing qonunchiligiga kiritish maqsadga muvofiqdir.

3. Fermer xo'jaliklarini qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi lizing obyektlari bilan ta'minlash.

4. Asosiy vosita ishlab chiqaruvchi korxonalarni lizing orqali texnologiya bilan ta'minlash.

5. Respublikaning barcha hududlarida lizing amaliyotini ommaviy keng qo'llash. Hozirda, qishloq joylarida uni qo'llash qishloq xo'jaligini yangi texnika-texnologiya bilan ta'minlash va yangi ish o'rinlari ochilishiga amaliy yordam beradi.

6. Tadbirkorlik subyektlari va kichik korxonalar tomonidan lizing loyihalarini amalga oshirishga va rivojlantirishga moddiy yordam va moliyaviy kafolat berish maqsadida O'zbekistonda lizingni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash fondini tuzish maqsadga muvofiqdir.

7. Lizingni keng rivojlantirish uchun, lizing biznesining infratuzilmasini takomillashtirish, xalqaro moliya institutlarini jalb qilib raqobat muhitini yaratish zarur.

Yuqorida qayt etib o'tilgan xulosa va takliflarni amaliyotda joriy etilishi, respublika qishloq xo'jaligida lizing faoliyatini yanada rivojlantirish, qishloq xo'jaligiga yetkazib beriladigan texnika va texnologiyalar miqdorining oshishi, mehnat unumdorligi darajasining ko'tarilishi va mahsulot yetishtirish tannarxining kamayishi, hosildorlikni ortishi va pirovard natijada mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga ijobiy tasir ko'rsatadi deb ishonch bildiramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari. Vazirlar Mahkamasi qarorlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya.- T.: O'zbekiston, 2014.
- 2.O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrda "Xususiy korxona to'g'risida" gi Qonuni. -O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami. № 3 - T.: Adolat, 2004.
- 3.O'zbekiston Respublikasining Lizing to'g'risidagi qonuni. 14.04.1999 y.
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1999 y.
- 4.O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi 30.11.2007 y. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami 2007 y. №52
- 5."Keksalarni e'zozlash" Davlat dasturi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. // Xalq so'zi, 2015 yil 19 fevral
- 6.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" Farmoni// Xalq so'zi, 2005 , 15 iyun.
- 7.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Krizisga qarshi dasturga kiritilgan qo'shimcha infratuzilma ob'ektlari bo'yicha loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi № PO'-1073-son qarori. 17.03.2009y.
- 8.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2010 yil 20 yanvar, PQ-1041-son.
- 9.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi" to'g'risida O'arori//O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari to'plami, 1999 54 - son, 1999 dekabr. -

T.:O‘zbekiston. Adliya vazirligi., 2000.-15-20

10. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida NIZOM. 1999 yil 5 fevral. - T.:O‘zbekiston, 1999.

11.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2008 yil 18 noyabr, PF-4053-son.

12.Karimov I.A. “Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir”. -T.: O‘zbekiston, 2005.

13.Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezon bo‘lishi darkor. Xalq so‘zi, 2006 yil 25 fevral.

14.Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. Xalq so‘zi, 2006 yil 11 fevral.

15.I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari/-T.: O‘zbekiston, 2009.

16.I.A.Karimov. “2008 yilda respublikani ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruza” “Xalq so‘zi”, 2009 y.14 fevral.

17.I.A.Karimov. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining BMTning “Mingyillik rivojlanish maqsadlari” Sammitidagi nutq. “Xalq so‘zi”, 2009 y. 21 sentyabr.

18.I.A.Karimov. Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir/- Toshkent: «O‘zbekiston», 2010.

19.Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish - mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir.-T.: 19.T. O‘zbekiston, 2011.

I. Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar.

1.Аксенов В. «Лизинг или кредит - что выгоднее?». Банковские ведомости, №50, декабр, 2006 г.

2.G‘ozibekov D.O‘. “Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari”. T.: “Moliya”, 2003.

3.Галимов Ю. «Лизинг - синтез аренды и кредита». Деловой партнер Узбекистана, феврал, 2004.

4.Вахабов А.В. Қишлоқ аҳолиси турмуш даражасини оширишда банк тизимининг ўрни. //Қишлоқ тараққиёти ва аҳоли турмуш даражасини оширишда банк - молия тизимининг ўрни.мавзусидаги Халқаро илмий - амалий конференция материаллари. – Т.: Молия, 2009. - Б. 22.

5. Ғозибеков Д.Ғ, Собиров О.Ш., Мўминов А.Г., Қулжонов О.М, Лизинг муносабатлари назарияси ва амалиёти. - Тошкент.: «Fan va texnologiya», 2004.

7. Исмаилова С.С. Ўзбекистон агросаноат мажмуасида лизинг фаолиятини ривожлантиришнинг иқтисодий асослари. И.ф.н. илм.дар.олиш учун диссертация. - Тошкент: БМА, 2009.

8.Сабилов О.Ш. Современное состояние лизинговых отношений в Республике Узбекистан и основные направления их дальнейшего совершенствования. Дисс.на соиск. уч. ст.к.э.н - Ташкент; БФА, 2001.

9.Армстронг М. Практика, управления человеческими ресурсами. Учебник. - СПб.: Питер, 2009.

10.Веснин В.Р. Управление персоналом. Теория и практика. Учебник. - М.: Проспект, 2010.

11.Герчикова И.Н. Менеджмент. Учебник. - М.:ЮНИТИ, 2003. 7.Gulyamov S.S. Menejment asoslari.T., 1997.

12.Зайнутдинов Ш.Н., Муракаев И.У. Основы менеджмента. Т.: Укитувчи, 1996.

13.Abdurahmonov O‘O‘., Xolmo‘minov SH.R., Xayitov A.B.,

Akbarov A.M. «Inson resurslarini boshqarish» O‘quv qo‘llanma T. 2004.

14.Конина Н.Ю. Менеджмент в международных компаний: как побеждают в конкурентной борьбе.- М.: ТК Велби, 2008.

15.Ламбен. Ж.Ж., Чумпитас Р., Шулинг И. Менеджмент, ориентирований на рынок. 2-е изд. /Пер. с англ. Под.ред. В.Б. Копчанова.- СПб.: Питер, 2008.

16.Bekmurodov A.SH., G‘ofurov U.V. O‘zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo‘nalishlar. Toshkent: - 2007 y.

17.Менеджмент организатсии: современные технологии. Под ред. Н.Г.Кузнецова. Ростов на Дону, 2002.

18.Далимов Р.Т., Махамбетова З., Худякова Н. К. Международная экономическая интегратсия. –Т.: Университет, 2004.

19.Raximova D.N., Abdulqosimov X.P., Abduraxmonov O.K. Boshqaruv tizimi va rahbar.- T.: TDTU., 2004.

20. Ergashev F va boshqalar Innovatsion menejment Darslik. T.: «Akademiya», 2005.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish - ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma’ruzalarini o‘rganish bo‘yicha O‘quv-uslubiy majmua. - Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010.

22. B.Yu.Xodiev, A.Sh.Bekmurodov, U.V.G‘ofurov, B.K.Tuxliev: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari» nomli asarini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma/ “Iqtisodiyot” 2009.

23.Мировая экономика: прогноз до 2020 года /под ред. акад. А.А. Дынкина /ИММО РАН. - М.: Магистр, 2008. - 2008.

24.Канбан и «точно вовремя» на Тойота: Менеджмент начинается на

рабочем месте. / Пер. с англ.- М.: Алпина Бизнес Букс, 2008.

25.Иваненко А.Г. Инновационный менеджмент: учебное пособие. - М.: КНОРУС, 2009.

26.Гончаренко Л.П. Менеджмент инвестиций и инноваций: учебник.- М.: КНОРУС, 2009.

27.Кане М.М., и др. Системы, методы и инструменты менеджмента качества: Учебник. - СПб.: Питер, 2009.

28.Етрилл П. Финансовый менеджмент для неспециалистов. 3-е изд. - СПб.: Питер, 2007.

29. «Финансовый лизинг становится рентабельным». Бизнес-вестник Востока, 23 января 2003 года, №4(574), стр.4.

30.Румянцев А.А. Менеджмент инноваций. Как научную разработку довести до инновации: учеб.пособ. - СПб.: «Бизнес-пресса», 2007.

31.Рынок лизинга в Европе. Бизнес-вестник Востока, №45, ноябрь, 2014.

32. Мухамедяров А.М. Инновационный менеджмент: учеб.пособ. - М.: ИНФРА-М, 2008.

33.Конина Н.Ю. Менеджмент в международных компаниях: как побеждать в конкурентной борьбе.- М.: ТК Велби, 2008.

34.Лизинговые компании Узбекистана. Бизнес-вестник Востока, №42, октябрь 2005.

35.Герчикова И.В. Управление персоналом (работник -самый эффективный ресурс компании). Учебник. - М.:ЮНИТИ, 2008.

36.Устойчивое экономическое развитие в условиях глобализации и экономики знаний: концептуальные основы теории и практики управления / Под ред. В.В. Попкова. М.: ЗАО «Издательство «Економика», 2007.

II. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar.

1.Инвеститсии Республики Узбекистан 2014. Статистический сборник. - Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2014.

2.Промышленность республики Узбекистан 2014. Статистический сборник. - Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2014.

3.Селское хозяйство Узбекистана 2014. Статистический сборник. - Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2014.

4.О‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendensiya va ko‘rsatkichlari hamda 2011- 2015 yillarga mo‘ljallangan prognozlari: statistik to‘plam. – Т.: “O‘zbekiston”, 2011.

III. Internet saytlar

1. www.gov.uz—O‘zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali.
2. www.press-service.uz— O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati rasmiy sayti.
3. www.mfer.uz— O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo Vazirligining rasmiy sayti.
4. www.omad.uz— Biznes rivoji uchun axborot portali.
5. www.UzA.Uz— O‘zbekiston Respublikasi milliy axborot agentligi rasmiy sayti.
6. www.review.uz — “Економическое обозрение” jurnalning rasmiy sayti.
7. www.stat.uz- statistika boshqarmasi rasmiy sayti.